

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

*Qo'l yozma huquqida  
UDK*

**MERXALIKOV ELYOR BAXTIYAROVICH**

**INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA  
QILISH MUAMMOLARI**

**5A230603 – “Investitsiyalarni boshqarish”  
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar:  
i.f.n. D.Xo'jamqulov**

**TOSHKENT - 2013**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>9</b>
1.1. Investitsiya loyihalarining mazmun-mohiyati va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati.....	9
1.2. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishning mohiyati, zarurligi va o'ziga xos xususiyatlari.....	17
1.3. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish jarayoni va yo'nalishlari.....	24
1.4. I bob bo'yicha xulosa.....	32
<b>II BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH AMALIYOTI TAHLILI.....</b>	<b>34</b>
2.1. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishning tartibi va huquqiy asoslari tahlili.....	34
2.2. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish orqali uning samaradorligini baholash.....	42
2.3. "Mir" investitsiya loyihasini kompleks ekspertiza qilish va baholash.....	50
2.4. II bob bo'yicha xulosa.....	59
<b>III BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....</b>	<b>60</b>
3.1. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishdagi muammolar.....	60
3.2. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirish yo'nalishlari.....	66
3.3. III bob bo'yicha xulosa.....	77
<b>XULOSA.....</b>	<b>78</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>82</b>

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.** Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash asosida amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan bugungi sharoitda mazkur maqsadda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ijrosida investitsiyalarga katta o'rin ajratilganligi muhim ahamiyat kssb etmoqda. Buning natijasida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham mamlakatda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari saqlanib qolinishiga erishilmoqda.

O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, avvalambor shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012 yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi.

Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlandi<sup>1</sup>.

Investitsiyalar faol iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omili sifatida iqtisodiyotning turli tarmoq va hududlarida strategik ahamiyatga molik muhim loyihalarni amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda va buning natijasida yaratilgan yangi ob'ektlar hisobiga ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa muammolar hal etilishiga erishilmoqda, iqtisodiy o'sish va aholi farovonligi ta'minlanmoqda.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida ko'zlangan maqsadlarga erishishda ularning yuqori sifat bilan, puxta va mukammal darajada

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: O'zbekiston, 2013. – B. 5.

ishlab chiqilganligi, undagi hisob-kitob va prognoz ko'rsatkichlarining haqqoniy, to'g'ri bajarilganligini ta'minlash imkonini beruvchi ekspertiza jarayonining samarali amalga oshirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish jarayonini takomillashtirishning zarurligi xususida "Banklar zimmasiga investitsiya faoliyatini kengaytirish vazifalari yuklanganligi sababli ularning ishini tubdan qayta tashkil etish lozim. Birinchi navbatda, bu borada investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va moliyalashni tashkil etish bo'yicha tijorat banklarining maxsus xizmatlarini mustahkamlash zarur"<sup>2</sup>, deb ta'kidlagan edilar.

Investitsiya loyihalarining samarali amalga oshirilishida ularni kompleks ekspertiza qilishning o'rni beqiyosdir. Lekin, amaliyotda ayrim investitsiya loyihalarining amalga oshirilishida muvaffaqiyatsizliklarga ushchrayotganligini va bunga bosh omil sifatida ularning kompleks ekspertizadan o'tkazilishiga jiddiy va mas'uliyat bilan yondashilmaganligi, oddiy va asossiz hisob-kitoblar bilan ishlab chiqilgan biznes rejalar asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni ko'rsatish mumkin.

Shu sababli investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish sifatini oshirish va undagi muammolarni hal etish yo'llarini aniqlash bugungi kunda muhim vazifalardan hisoblanadi va bu mazkur dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi.** Tadqiqot **predmeti** bo'lib, investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish va undagi muammolarni hal etish jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqot **ob'ekti** bo'lib, kompleks ekspertiza qilinuvchi investitsiya loyihalari hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Tadqiqot **maqsadi** investitsiya

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. – T.: O'zbekiston, 2009. – B. 6.

loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- investitsiya loyihalarining mazmun-mohiyati va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berish;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishning mohiyati, zarurligi va o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish jarayoni va yo'nalishlarini o'rganish va yoritish;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishning tartibi va huquqiy asoslarini tahlil qilish;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish orqali uning samaradorligini baholash;
- “Mir” investitsiya loyihasini kompleks ekspertiza qilish va baholash;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishdagi muammolarni aniqlash;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish sifati va samaradorligini oshirish, undagi muammolarni hal etishga olib kelishi mumkin.

**Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** Investitsiya loyihalari kompleks ekspertizasi masalalari bo'yicha ko'plab xorijlik iqtisodchi-olimlar, jumladan, I.I.Mazur, V.D.Shapiro, N.G.Olderogge, B.A.Koltinyuk, Dj.X.Robert, P.I.Vaxrin, A.S.Neshitoy, A.Domadaran, L.E.Bosovskiy, I.A.Buzova, E.A.Mixaylova, L.N.Orlova, V.Berents, P.Xavraneks, Yu.V.Bogatin, V.A.Shvandarlar ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar.

Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishning nazariy va amaliy

jihatlari mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan D.G'.G'ozibekov, M.S.Angelidi, N.G'.Karimov, E.I.Nosirov, A.S.Jo'raev, D.Yu.Xo'jamqulov, B.S.Mamatov kabilarning ilmiy ishlarida ifodalangan.

**Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.** Tadqiqot jarayonida dinamik, qiyosiy, deduktik, mantiqiy, analitik, sintetik va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining nazariy-ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy-nazariy va amaliy g'oyalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirishga qaratilgan kelgusidagi maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalari va ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish bo'yicha uslubiyotni takomillashtirish va unga oid qo'llanmalarni yaratishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Investitsiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholash" va "Investitsiya loyihalari kompleks ekspertizasi" fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- investitsiya loyihalarining mazmun-mohiyati va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berildi;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishning mohiyati, zarurligi va o'ziga xos xususiyatlari yoritildi;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish jarayoni va yo'nalishlari o'rganildi va yoritildi;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishning tartibi va huquqiy asoslari tahlil qilindi;

- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish orqali uning samaradorligi baholandi;
- “Mir” investitsiya loyihasi kompleks ekspertiza qilindi va baholandi;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishdagi muammolar aniqlandi;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.** Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, jami 88 bet, 6 ta rasm, 7 ta jadval va 11 ta formuladan iborat.

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning ob'ekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, asosiy masalalari va frazalari, nazariy va amaliy ahamiyati, ilmiy yangiligi yoritilgan.

Ishning birinchi bobi “Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishning nazariy asoslari” deb nomlanib, unda investitsiya loyihalarining mazmun-mohiyati va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati, investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishning mohiyati, zarurligi va o'ziga xos xususiyatlari, investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish jarayoni va yo'nalishlari o'rganilgan va yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobi “Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish amaliyoti tahlili” deb atalib, ushbu bobda investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishning tartibi va huquqiy asoslari tahlili, investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish orqali uning samaradorligini baholash va ““Mir” investitsiya loyihasini kompleks ekspertiza qilish va baholash olib borilgan va tahlil natijalariga ko'ra xulosalar berilgan.

Ishning “Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirish yo'llari” deb nomlanuvchi uchinchi bobida investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishdagi muammolar o'rganilib, investitsiya

loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirish yo'nalishlari ochib berilgan.

Dissertatsiya ishining xulosa qismida mavzuni tadqiq etish natijasida shakllantirilgan xulosalar hamda investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar keltirilgan.



# **I BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISHNING NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. Investitsiya loyihalarining mazmun-mohiyati va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati**

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar etakchi rol o'ynaydi, chunki investitsiya orqali korxonalarining kapital jamg'arilishiga, natijada mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy o'sishga erishiladi.

Investitsiyalar makrodarajada quyidagilarni ta'minlaydi:

- takror ishlab chiqarishni kengaytirish siyosatini amalga oshirish;
- ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, uning sifati va hajminini oshirish;
- ijtimoiy sohalarni (sog'liqni saqlash, ta'lim va boshq.) rivojlantirish;
- aholi farovonligini ta'minlashda muhim bo'lgan uy-joy qurilishi, ichimlik suvi, gaz, elektr energiya bilan ta'minlash muammolarini hal etish;
- atrof-muhit va ekologiyaning ifloslanishining oldini olish;
- umumjamiyat ishlab chiqarishini tarkibiy jihatdan qayta qurish va barcha iqtisodiyot tarmoqlarini bir maromda rivojlantirish;
- iqtisodiyotning real sektori va etakchi tarmoqlarini rivojlantirish;
- hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va ixtisoslashuvini mustahkamlash;
- investitsiyalar importi va eksporti orqali milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasini kuchaytirish;
- sanoat uchun zarur xom ashyo bazasini yaratish;
- ishsizlik muammosini yumshatish yoki ma'lum darajada hal etish;
- mamlakatning harbiy sanoat majmuini mustahkamlash;
- davlatning mudofaa imkoniyatlarini ta'minlash;

– boshqa qator muammolarni hal etish.

Investitsiyalar mikrodarajada ham muhim rol o'ynadi. Bunda investitsiyalar, eng avvalo, quyidagi maqsadlarga erishish uchun zarurdir: korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish; asosiy fondlarning haddan tashqari jismoniy va ma'naviy eskirishiga yo'l qo'ymaslik; ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasini oshirish; korxonalar mahsuloti raqobatbardoshligini ta'minlash va uning sifatini oshirish; tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish; qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqa korxonalar aktivlariga o'z mablag'ini sarflash.

O'zbekiston Respublikasi uchun investitsiyalar, birinchi navbatda, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiyalash va rivojlantirish maqsadida juda zarurdir. Bunday maqsadlarga erishish yangi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ob'ektlarini yaratish, jumladan, bino va inshootlar qurish va zamonaviy mashina va asbob-uskunalar sotib olish, ularni modernizatsiya qilish, kengaytirishni, ya'ni ushbu maqsadlarni o'zida mujassam etgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni taqazo etadi.

Investitsiya loyihasi muayyan maqsadlarni aks ettiruvchi, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilishini ta'minlovchi kompleks tadbirlar yig'indisini o'zida jam qilgan iqtisodiy atama hisoblanadi.

Odatda, har qanday investitsion tadbirkorlik muayyan maqsadga yo'naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan investitsiya g'oyasiga asoslanadi. Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g'oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi.

«Investitsiya loyihasi» tushunchasi iqtisodiy nazariyada va amaliyotda keng qo'llaniladi va u ikki xil ma'noda talqin etiladi:

– muayyan maqsadlarga erishishni (ko'zlangan natijalarni hosil qilishni) ta'minlovchi qandaydir faoliyatlar yig'indisini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ish, faoliyat, tadbir sifatida tushuniladi. Bunday hollarda «xo'jalik tadbiri», «ish (ishlar yig'indisi)», «loyiha» terminlari ushbu tushunchalarga

mazmunan yaqin keladi. Umumiy jihatdan, loyiha (ingl. projekt) – bu «biron nima, nima o'ylanayapti yoki rejalashtirilayapti», degan ma'nolarni anglatadi<sup>3</sup>;

– qandaydir faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlari tizimi yoki bunday faoliyatlar tizimini bayon etuvchi hujjatlar to'plami sifatida qaraladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda «investitsiya loyiha»si ikkinchi mazmundagi tushuncha sifatida qo'llaniladi. «Loyiha» termini birinchi mazmun bo'yicha tushuniladi. Umuman olganda, «investitsiya loyiha»si tushunchasi uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish, ob'ektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonlarini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qaralishi mumkin. Shuningdek, investitsiya loyihasi qator umumiy xususiyatlarni tavsiflovchi turli xil faoliyat ko'rinishlarini birlashtiradi va ulardan umumiyarlari quyidagilar hisoblanadi: aniq natijalarga, aniq maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan; turli xil bir-biri bilan aloqador faoliyatlarni bajarishni muvofiqlashtirish; vaqt davomida cheklanganligi va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7 iyundagi 110-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risida»gi Nizomda: «investitsiya loyihasi (loyiha) – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar

---

<sup>3</sup> Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Учеб. пос. для вузов /Под общ. ред. И.И. Мазура. – М.: «Экономика», 2001. – С. 18.

kompleksi»<sup>4</sup>, sifatida tavsiflangan.

To'liq shakllangan, yakuniga etgan investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish umumiy holda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi: investitsiya g'oyasini shakllantirish; investitsiya imkoniyatlarini tadqiq etish; investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA); shartnoma hujjatlarini tayyorlash; loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash; qurilish-montaj ishlari; ob'ektni ishga tushirish va investitsiya loyihasi (iqtisodiy ko'rsatkichlar) monitoringini olib borish.

Investitsiya loyihasi o'z maqsadi, yo'nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo'lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. U tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to'liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat hisoblanadi.

Investitsiya loyihasining boshqa hujjat va «loyiha»lardan asosiy farqi shundaki, u haqiqiy hujjat sifatida qaror topishi uchun uning barcha tomonlari maxsus usullar yordamida keng va aniq hisob-kitoblar bilan baholanadi. Shu bilan birga, uning amalga oshirilishi muayyan miqdordagi mablag'larni safarbar etishga asoslanadi. Prof. D.G'ozibekov investitsiya loyihalari to'g'risida fikr bildirib: «investitsiya loyihasiga muayyan ishlab chiqarish quvvatlariga kelajakda alohida turdagi samaralar keltirishi zarur bo'lgan, aniq belgilangan tadbirlar yo'li bilan resurslarni investitsiyalash bo'yicha takliflar to'plami tarzida ta'rif berish mumkin»<sup>5</sup>, deb ta'kidlaydi. Shuningdek, u investitsiya loyihasining sifat-tavsiflarini, boshqa tadbirlardan farq qiluvchi jihatlarini ochib berishi diqqatga sazovordir<sup>6</sup>.

Rossiyalik iqtisodchi-olim B.Koltinyukning fikricha: «investitsiya loyihasi keng ma'noda foyda olish maqsadida kapital qo'yish rejasi bo'lib, uni ikki xil ma'noda talqin etadi: aniq maqsadlarga erishish (aniq natijalar

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7 iyundagi «Investitsiya loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash tartibi haqida»gi 110-sonli Qaroriga ilova.

<sup>5</sup> G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya», 2003. – B. 67-68.

<sup>6</sup> G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya», 2003. – B. 68-69.

olish)ni ta'minlovchi qandaydir harakatlar majmuini amalga oshirishni nazarda tutuvchi tadbir, faoliyat; qandaydir harakatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aniq hisob-moliyaviy va tashkiliy-huquqiy hujjatlarni qamrab oluvchi tizim»<sup>7</sup>.

Umuman olganda, investitsiya loyihasi investitsion tadbirkorlik va tashabbusning mevasi, natijasi sifatida yaratilgan investitsion hujjat bo'lib, investitsiyalar bilan ta'minlangan har qanday tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Ya'ni u cheklangan muddat va vaqt mobaynida foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadidagi bir-biri bilan bog'liq, bir-biri bilan aloqadorlikdagi murakkab tadbirlar yig'indisidir.

Fikrimizcha, «investitsiya loyiha»si tushunchasi bir qator umumiy xususiyatlarni tavsiflovchi turli xil faoliyat ko'rinishlarini birlashtiradi va ulardan birmuncha umumiylari quyidagilar hisoblanadi:

- aniq natijalarga, aniq maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan;
- turli xil bir-biri bilan aloqador faoliyatlarni bajarishni muvofiqlashtirish;
- vaqt davomida cheklanganligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiya loyihasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: cheklangan muddat va vaqt mobaynida foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadidagi bir-biri bilan o'zaro bog'liq, bir-biri bilan aloqadorlikdagi murakkab tadbirlar yig'indisini o'zida mujassam etgan huquqiy-boshqaruv, texnik va moliyaviy hisoblar hujjatlari to'plamiga investitsiya loyihasi deyiladi.


Investitsiya loyihasi kelishilgan muddatlarda aniq maqsadlarga erishish hamda rejalashtirilgan natijalarni olish uchun aniq miqdordagi resurslarni (intellektual, moliyaviy, moddiy) qo'yishni, joylashtirishni ko'zda tutuvchi tadbirlar majmuidir. Investitsiya loyihasining moliyaviy natijalari bo'lib, ko'p

---

<sup>7</sup> Колтынюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной сферы: Учебник. – СПб.: «Изд-во Михайлова В.А.», 2000. – С. 13.

hollarda, foyda (daromad), moddiy-mulkiy natijalari bo'lib, yangi yoki ta'mirlanayotgan asosiy fondlar yoki daromad olish uchun moliyaviy vositalarni yoki nomoddiy aktivlarni ishlatish va sotib olish hisoblanadi. Investitsiya loyihasining asosiy elementlari va yo'nalishlarini quyidagicha tasvirlash mumkin (1.1-rasm).

Shuni ham ta'kidlash joizki, investitsiya loyihasini amalga oshirishning bosh maqsadi foyda (daromad) olishga yoki hech bo'lmaganda kapital qiymatini saqlab qolishga qaratiladi.




**1.1-rasm. Investitsiya loyihasining asosiy elementlari va yo'nalishlari<sup>8</sup>**

Investitsiya loyihasi uch tomonlama cheklangan bo'lib, muayyan iqtisodiyotda, hududda amalga oshirilishi bilan, belgilangan vaqt bilan cheklanadi. Mazkur hududda belgilangan vaqtda loyiha amalga oshirilsa, u o'zining maqsadiga erishish kuchiga egadir. Investitsiya loyihalari yana bir tomondan cheklanishi, ya'ni unga safarbar etiladigan resurslar qiymati (xom ashyo, mehnat va moliyaviy resurslari qiymati) o'zgarib boradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiya loyihasini quyidagicha tasniflash

<sup>8</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

mumkin (1.2-rasm).

Investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya'ni neft va kimyo sanoati, transport, energetika, er osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratiladi. Mazkur tarmoqlardagi investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish qulay investitsiya muhitini shakllantirishni taqozo etadi. Qulay investitsiya muhiti investorning u yoki bu davlat iqtisodiyotiga mablag' sarflashi uchun shart-sharoitlarning qulayligini, ya'ni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va huquqiy sharoitlarning yaratilganligini baholashdagi barcha hisob-kitoblar majmuasini o'z ichiga oladi.



1.2-rasm. Investitsiya loyahasining tasniflanishi<sup>9</sup>

Investorlar uchun investitsiya loyhasini amalga oshirishda qanchalik qulay muhit yaratilsa, uning milliy iqtisodiyotga keltiradigan samarasi shuncha yuqori bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning ahamiyati quyidagilar bilan izohlanadi:

- birinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor

<sup>9</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

tarmoqlariga yo'naltirish va pirovardida, aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

- ikkinchidan, xorijiy investitsiyalarning samarali o'zlashtirilishi natijasida ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etilib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- uchinchidan, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

- to'rtinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi;

- beshinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.

Investitsiya loyihalarining samarali amalga oshirilishi iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalarning yuqori foyda keltirishi va makroiqtisodiy o'sishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagi jadvaldan ham ko'rish mumkin:

**1.1-jadval.**  
**O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti va investitsiyalarning o'sish sur'atlari dinamikasi<sup>10</sup>**

Yillar	YaIM (mlrd. AQSh dollari)	Oldingi yilga nisbatan foiz hisobida	Investitsiyalar (mlrd. AQSh dollari)	Avvalgi yilga nisbatan, foiz hisobida
2002	7,4	104,2	1,4	103,8
2003	9,7	104,4	1,9	104,5
2004	12,2	107,7	2,5	105,2
2005	15,2	107,0	2,9	107,0
2006	17,0	107,3	3,3	111,4
2007	22,3	109,5	4,7	123,0
2008	28,1	109,0	6,5	128,3
2009	32,1	108,1	8,2	124,8
2010	38,7	108,5	9,7	113,6
2011	45,9	108,3	10,8	111,2
2012	51,1	8,2	11,7	111,6

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari.



Bu holat investitsiyalarning YaIMdagi salmog'ining o'sishiga olib keldi. Jumladan, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2002 yilda 18,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilga kelib 23,5 foizga ko'tarildi. 2012 yilda iqtisodiyotimizga yo'naltirilgan kapital mablag'lar, investitsiyalar tobora o'sib borayotganida, bu ko'rsatkich YaIMga nisbatan 22,9 foizni tashkil qildi. E'tiborga sazovor tomoni shuki, jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirildi<sup>11</sup>.

## **1.2. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishning mohiyati, zarurligi va o'ziga xos xususiyatlari**

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilishdan avval uning maqsadga muvofiqligi, hayotga tadbiiq etishdagi afzalliklari kabi muhim talablarga javob berishi o'rganib chiqilishi va asoslanishi lozim bo'ladi. Aynan mana shu masalani investitsiya loyihalari kompleks ekspertizasi amalga oshiradi va hal etadi.

Investitsiya loyihalari kompleks ekspertizasi – bu investitsiya loyahasini tizimli va yaxlit tarzda o'rganish, uning barcha jihatlarini tahlil qilish va baholash hamda ular nitajasi bo'yicha tegishli xulosalarni shakllantirish.

Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishning zaruriyati uni amalga oshirish bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning to'g'riligi, ishonchliligi va asosliligini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadda investitsiya loyahasini kompleks ekspertizadan o'tkazishda bir necha yo'nalishdagi tahlil usullaridan qo'llanilishga to'g'ri keladi. Buni amalga oshirishdan maqsad investitsiya loyahasining har

---

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi: Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlarni va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. // «Xalq so'zi», 2013 yil 19 yanvar, №13. – B. 1.

tomonlama talabga mos kelishi, hayotiyligi, samaradorligi, qilingan investitsiya xarajatlarini tez va to'liq qoplay olishi, loyiha mahsulotlarining sifatli, arzon va raqobatbardoshli ekanligi, iste'mol uchun talablar etarliligi, buning uchun ishlab chiqarishga joriy etiladigan texnologiyaning yangiligi, moddiy va ma'naviy eskirmaganligi, qiymatining asosliligi, ishlab chiqarishga joriy etiladigan xom ashyo va materiallarning mavjudligi, yaqinligi, arzon va sifatli, olib kelish xarajatlarining qimmatga tushmasligi, ularning o'rinbosarlari mavjudligi, shchi kuchining mavjudligi, ularning arzonligi, yuqori malakali ekanligi, mamlakatda siyosiy va iqtisodiy barqarorlik hukm surishi, investorlar huquq va manfaatlarining himoya qilinishi va boshqa juda ko'plab masalalar mavjudki, bu kabi savollarga aniq, to'liq va ishonchli javoblarni topish imkonini faqat kompleks ekspertiza ta'minlab bera oladi. Shuning uchun ham investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi va tegishli yo'nalishlarda tahlillar olib borilishini ta'minlaydi.

Loyiha tahlili uslubiyoti investitsiya loyihalarini amalga oshirish ehtimoli jihatidan ularni identifikatsiyalash, tekshirish, batafsil ko'rib chiqish, ma'qullash va kompleks ekspertizadan o'tkazish bosqichlarini nazarda tutadi. Kompleks ekspertiza loyiha mahsulotlariga erishish imkoniyatlarini izlashga, loyihani cheklangan resurslar bilan belgilangan vaqt mobaynida (zamonda) va makonda ta'minlash, shuningdek, tegishli texnik vazifalarni hal qilishga qaratiladi.

Investitsiya loyihasini kompleks ekspertizasidan o'tkazishning asosiy maqsadi loyihani amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi – hayotiyligi, samaradorligi, raqobatdarboshligi, daromadliligini o'rganish va aniqlashdan iborat. Shunga muvofiq holda investitsiya loyihasini kompleks ekspertizasidan o'tkazishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iboratdir:

- investitsiya loyihasini kompleks ekspertizadan o'tkazish rejasi va muddatini ishlab chiqish;

- investitsiya loyihasini kompleks ekspertizadan o'tkazish rejasi – grafigiga amal qilinishini ta'minlash;
- investitsiya loyihasining riskka ta'sirchanligini o'rganish va aniqlash;
- moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy samaradorligini aniqlash;
- investitsiya loyihasining ekologik tahlilini va ta'sirini o'rganish;
- investitsiya loyihasining raqobatdardoshligi vva hayotiylikini o'rganish va aniqlash va sh.k.

Investitsiya loyihasining kompleks ekspertizasida uning tadbiriq etilishining asoslari yaratiladi. Ekspertizaning vazifasi – jami ijobiy va salbiy oqibatlarini hisobga olgan holda investitsiya loyihasiga baho berishdan hamda tanlovdan iborat bo'ladi. Ekspertiza investitsiya loyihasining bir necha muhim jihatlarini tahlil qilishni qamrab oladi.

Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish ko'pgina olimlarning olib borgan tadqiqotlarida investitsiyalarning hayotiylik tsiklini va tahlil natijasiga ko'ra keladigan daromadini aniqlashni belgilab berishi ta'kidlab o'tilgan. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish amaliyotini yoritishda olimlar turlicha yondoshuvlarga asoslanganlar.

Jumladan, Dj. Littl va L. Roudslar tadqiqotlarida investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish (investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish)ni ikki kategoriya sifatida amalga oshirish zarur deb hisoblaydilar. Birinchi kategoriya sifatida, birlamchi baholashni asos qilib, uning texnik-texnologik va qiziquvchi tomonlarning talablarini hisobga olishni. Ikkinchi kategoriya sifatida loyihaga ishtirok etuvchi tomonlarga ta'sir etuvchi risklarni baholash muhim deb fikr bildirishgan<sup>12</sup>. Dj.X. Robertning fikricha investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni amalga oshirishda loyihaga ishtirok etuvchi tomonlarning talablariga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni hisobga olish zarur deb hisoblaydi<sup>13</sup>.

---

<sup>12</sup> Литлл Дж., Роудс Л. Как пройти на Уолл-стрет. С-Петербург. ПИТЕР, 1998. -368 с.

<sup>13</sup> Роберт Дж.Х. Инвестирование. –М.:АГАТА, 2005. – 288 с.

P.I. Vaxrin, A.S. Neshitoylar fikricha, investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni amalga oshirishda loyihani jalb etayotgan korxonalar va tashkilotlarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtirokini alohida hisobga olgan holda, manfaatdor tomonning pul oqimlarini chuqur tahlil qilish lozim deb ta'kidlaydi<sup>14</sup>.

Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni chuqur tahlil etgan olimlardan A.Domaradanning olib borgan tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Ushbu olimning fikricha korxonalar va tashkilotlarda investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda ularning iqtisodiy holatiga, fond bozoridagi ishtirokiga, pul oqimlari, chiqarayotgan mahsulotlarining raqobatbardoshligiga, uning faoliyatining hayotiylik tsikliga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi. Ikkinchi tomondan manfaatdor tomonlarning loyihasini foydaliligini, unga ta'sir etuvchi risk darajasini va investitsiyaning hayotiy tsiklini baholash zarur deb hisoblaydi<sup>15</sup>.

L.E. Bosovskiy tadqiqotlarida investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni 4 bosqichda olib borish zarurligini keltirib o'tadi. Uning ikkitasida loyihani o'zida amalga oshirayotgan korxonalar va tashkilotlarni barcha ko'rsatkichlarini tahlil qilish zarur deb hisoblasa, keyingi ikkita bosqichda manfaatdor tomonlarning talablarini tahlil qilish zarur deb hisoblaydi<sup>16</sup>.

Bir qator olimlar investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni manfaatdor tomonlarni chuqurroq tahlil qilishni taklif etadilar<sup>17</sup>. Ularning fikricha manfaatdor tomonlarning fond bozorida ishtiroki ham investitsion loyihani hayotiylik tsiklini baholashda muhimligini ko'rsatib berganlar. E.A. Mixaylova va L.N. Orlovalar investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish firmaning moliyaviy salohiyati va iqtisodiy samaradorligini baholash

---

<sup>14</sup> Вахрин П.И., Нешитой А.С. Инвестиции. Учебник.-М.: 2005. -380 с.

<sup>15</sup> Домадаран А. Инвестиционная оценка. Инструменты и техника оценки любых активов.-М.: Учебник. 2004. 1342 с., «Альпина Паблишер», 2011. -1324 с.

<sup>16</sup> Босовский Л.Е. Экономическая оценка инвестиций. –М.: Учебное пособие. "Инфра-М", 2007. -242 с.

<sup>17</sup> Бузова И.А. в а бошқалар. Коммерческая оценка инвестиций. –М.: Учебник. 2003. -427 с.

asosida xulosa qilish mumkin deb ta'kidlab o'tishadi<sup>18</sup>.

Respublikamiz iqtisodchi-olimlari fikricha, investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni o'tkazishda investitsiya samaradorligini, risk va noaniqlikni, texnik baholash va tahlil etish, investitsiya loyihalarini monitoringini o'tkazish muhim deb hisoblashadi<sup>19</sup>. Iqtisodchi olim D.G'. G'ozibekov ilmiy tadqiqotlarida loyiha tahlili uslubiyoti investitsiya loyihalarini amalga oshirish ehtimoli jihatidan ularni identifikatsiyalash, tekshirish, batafsil ko'rib chiqish, ma'qullash va kompleks ekspertizadan o'tkazish bosqichlarini nazarda tutadi. Kompleks ekspertiza loyiha mahsulotlariga erishish imkoniyatlarini izlashga, loyihani cheklangan resurslar bilan belgilangan vaqt mobaynida va makonda ta'minlash, shuningdek tegishli texnik vazifalarni hal qilishga qaratiladi-deb ta'kidlab o'tgan<sup>20</sup>.

Iqtisodchi olim A.V. Vaxabov fikricha investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda davlatdagi investitsiya muhitini nazarga olish asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etadi. Investitsiya muhitini belgilovchi eng muhim omillardan biri-qabul qiluvchi mamlakat ichki bozorining sig'imi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich YaIM hajmi va aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromadlar bilan o'lchanadi<sup>21</sup>.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, olimlarning fikricha investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni ikki toifaga bo'lishga harakat qilishgan, ya'ni birinchi toifadagilar korxonalar va tashkilotlarni kompleks tahlil qilish zarur deb baholasalar, ikkinchi toifadagi tadqiqotlar manfaatdor tomonlarning talablarini o'rgangan holda ularni chuqur kompleks tahlil qilishni taklif etadilar.

Bizning fikrimizcha investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza

---

<sup>18</sup> Михайлова Э.А., Орлова Л.Н. Экономическая оценка инвестиций. –М.: Учебное пособие, РГТА, 2008. -176 с.

<sup>19</sup> Jo'raev A.S. va boshqalar. Investitsiya loyihalari tahlili. –T.: O'quv qo'llanma, 2003. -256 b.

<sup>20</sup> G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.-T.: "Moliya", 2003. -332 b.


<sup>21</sup> Vaxabov A.V. va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. –T.: O'quv qo'llanma. "Moliya", 2010. -328 b.

qilishni amalga oshirishda har ikkala tomon talablarini chuqur tahlil qilish zarur deb hisoblaymiz. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish - loyihani jalb etayotgan va manfaatdor tomonlarga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni iqtisodiy, moliyaviy, texnik-texnologik, va ta'sir etuvchi risklarini tahlil qilish asosida qaror qabul qilish tushuniladi.

Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni amalga oshirishda loyihasining samaradorligini va amalga oshirish uchun maqsadga muvofiqligni baholash va asoslashda uning muqobil variantlari bilan taqqoslanishini amalga oshirish talab etiladi va bu investitsiya loyihasining haqiqiy samaradorligi va foydali jihatlarini to'liq ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun investitsiya loyihalarining turli yo'nalishlar bo'yicha ko'rsatkichlari, afzallik va kamchilik jihatlarini, texnologiyalarni qo'llash, mahsulot ishlab chiqarish hajmi, narxi, sifati, xaridorgirligi, qanday bozor uchun mo'ljallanayotganligi, raqobatchilari, talabga mosligi va talablarning mavjudligi, moliyalashtirish manbalari, loyiha umumiy qiymati, xom ashyo va materiallardan foydalanishdagi afzallik va murakkabliklar, investitsiyalarning qoplanish imkoniyatlari va muddatlari, loyihaning turli risklardan himoyalanganligi, hamkorlarning ishonchliligi, loyiha rahbarlari yoki hamkorlarning ish tajribasi, adolatliligi va boshqa jihatlarini o'rganib chiqiladiki, bu natijada qaysi investitsiya loyihasining afzal va samarali ekanligini aniqlash va asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya loyihalari kompleks ekspertizasida investitsiya loyihasi samaradorligini aniqlashda, ya'ni investitsiya loyihalari orasidan maqbul bo'lganini tanlashda, amalga oshiriladigan loyihalarni baholashda hamda hududiy xususiyatlari bo'yicha maqsadga muvofiqligini tanlashda, asosan, quyidagi mezonlardan foydalaniladi (1.3-rasm).



**1.3-rasm. Investitsiya loyhasini kompleks ekspertizasida foydalaniladigan mezonlar<sup>22</sup>**

Loyihani rejalashtirishda faqat iqtisodiy hayoti ahamiyatli hisoblanadi. Shu sababdan investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda jarayonida gorizont rejalashtirish bilan loyiha hayotiyliigi o'rtasidagi aloqadorlik, albatta, hisobga olinishi lozim.

<sup>22</sup> Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

### **1.3. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish jarayoni va yo'nalishlari**

Investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi g'oyaning paydo bo'lishidan boshlab uning moddiylikka aylanishigacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Bu jarayon uch fazadan iborat bo'ladi: Ular quyidagilardan iborat:

- investitsiya oldi fazasi (boshlang'ich bosqich);
- investitsiya fazasi (o'rta faza yoki investitsiyalarning amalga oshirilish fazasi);
- ekspluatatsiya fazasi (yoki ishlab chiqarish, tugallash fazasi).

Investitsiya loyihasining birinchi fazasida uning TIA (texnik-iqtisodiy asosnomasi) ishlab chiqiladi, uni moliyaviy-iqtisodiy baholash ishlari amalga oshiriladi, investitsiyani amalga oshirish uchun imkoniyatlar tahlil qilinadi hamda loyihani amalga oshiruvchi korxonaning moliyaviy holati baholanadi. Ikkinchi fazasida kapital qo'yilmalar amalga oshiriladi, ya'ni loyiha bo'yicha qurilish ishlari olib boriladi, uskunalar sotib olinadi va ishlab chiqarishga tayyorlash ishlari o'tkaziladi. Uchinchi fazasida loyiha quvvati ishga tushiriladi va mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarila boshlaydi.

Investitsiya loyihasining, aynan, investitsiya oldi fazasida texnik-iqtisodiy asoslash ishlari amalga oshiriladi va u eng asosiy faza hisoblanadi.

Investitsiya loyihasini ishlab chiqishning asosiy bosqichi bo'lib, investitsiya oldi fazasi hisoblanadi.

Ushbu fazada loyiha ishlab chiqiladi, uning imkoniyatlari o'rganiladi, dastlabki texnik-iqtisodiy tadqiqot-kuzatishlar o'tkaziladi, potentsion investor va loyihaning boshqa ishtirokchilari bilan muzoqarolar olib boriladi, xomashyo va uskunalarni etkazib beruvchilar tanlanadi. Agar investitsion loyihaga kredit jalb qilish ko'zda tutilgan bo'lsa, unda bu fazada kreditni olish bo'yicha bitimlar tuziladi; investitsion loyihani yuridik jihatdan rasmiylashtiriladi; hujjatlarni



tayyorlash, shartnomalarni rasmiylashtirish va korxonani ro'yxatga olish amalga oshiriladi.

1.2-jadval.

**Loyihaning investitsiya oldi fazasi<sup>23</sup>**

<b>Investitsiya oldi fazasi</b>		
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>
Loyihani amalga oshirish imkoniyatlarining tahlili	Loyihani asoslashning tayyorgarlik bosqichi	Loyihani baholash va investitsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish
Investitsiyalash uchun kerak bo'ladigan mablag'lar hajmi va salohiyatli (potentsial) investorlar	Loyihani mavjud muqobillar bilan solishtirgandagi dastlabki asoslash	Yakuniy qaror sifatida loyihani ijtimoiy-iqtisodiy baholash
Loyihani amalga oshirishning ichki va tashqi shart-sharoitlari baholash	Qo'shimcha (funktional) izlanishlar	Investitsiyalashning salohiyatli manbalarini aniqlash
Loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini makro va mikroiqtisodiy darajada tahlil qilish	Loyihani texnik iqtisodiy asoslash (TIA)	Investitsiyalashning tadbirlarining ishlab chiqish
	Loyihani amalga oshirishga kelishish va tasdiqlash (ishchi hujjatlar)	

Loyihaning investitsiya oldi fazasida bo'lg'usi loyihalashtirish ob'ektining imkoniyatlari o'rganiladi. Loyihaning bu hayotiy bosqich tsiklida, uning hayotga mos qobilligi va jalb etuvchanligiga asos yaratiladi. Investitsiya oldi fazasi loyihaning to'liq xarakteristikasini berishi shart. Ba'zi xollarda investitsiya loyihasining bu hayotiy tsikl bosqichining davomiyligini aniqlash juda qiyin kechadi.

Jahon amaliyotida investitsiya oldi fazasi quyidagi bosqichlari mavjud: 1. Investitsiya g'oyalarining shakllanishi, ya'ni g'oyani tanlash va dastlabki asoslash yoki dastlabki investitsion kontsentsiyani shakllantirish (opportunity studies). 2. Investitsiya imkoniyatlarini izlash, ya'ni ishlab chiqariladigan mahsulotga talabni o'rganish, loyihaning qiymati va uning samarasini aniqlash (pre – feasibility studies). 3. Loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishi yoki uning

<sup>23</sup> «Investitsiya loyihalari kompleks ekspertizasi» fanidan ma'ruzalar matni. – T.: TMI, 2012. – B. 19.

texnik-iqtisodiy va moliyaviy maqbulligini baholash (feasibility studies). 4. Baholovchi xulosani tayyorlash va investitsiyalash uchun qaror qabul qilish (final evaluation).

Investitsiya g'oyalarining shakllanishi bosqichida, bu g'oyani tanlash, uni dastlabki asoslash, loyihada ko'rsatilayotgan ishlab chiqarishni tashqil etish, texnik, innovatsion va ekologik nuqtai nazardan bir qarorga kelish, loyihani amalga oshirish davomida qo'yiladigan boshqa talablarga javob berish, investitsiya g'oyasining ustunligini tarmoq, xududiy va davlat idoralari bilan dastlabki kelishuv, loyihani amalga oshira oladigan korxonani dastlabki tanlash va ma'lumotlar memorandumini tayyorlash ishlari ko'rib chiqiladi.

Investitsiya imkoniyatlarini izlash bosqichi eksport va importni hisobga olgan holda mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabni dastlabki o'rganish, mahsulot va xizmatlar bazaviy, joriy va prognozlashtirilayotgan narxlari darajasini baholash, loyihani amalga oshirish bo'yicha huquqiy-tashqiliy takliflar va loyiha ishtirokchilari tarkibi, taxmin qilinayotgan investitsiya miqdorini baholash, loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari bo'limlari bo'yicha dastlabki baholashni tayyorlash, shu jumladan, loyihaning samaradorligini baholash, potentsial investorlar uchun investitsion takliflar tayyorlashni o'z ichiga oladi.

Investitsiya loyihasi ekspertizasining texnik jihati g'oyat muhim, chunki loyiha muvozanatlangan muhandislik va texnik tamoyillarga asoslanmog'i lozim. Ekspertizaning bu bosqichida loyihaning tadbiiq etish jarayonlari, loyiha uchun etkazib beriladigan materiallar, uskuna-jihozlar va texnika tizimlarining ishonchliligi; loyihani joylashtirish o'rning asoslanganligi, loyiha uchun zarur bo'lgan resurslarning mavjudligi va sifati, shu jumladan, ishchi kuchi va rahbar kadrlarning malakasi, loyiha foydalanadigan mavjud infra-tuzilmaning ishonchliligi; kontraktlar tuzish tartib-qoidalari va mexanizmlari, ishlab chiqarish quvvatlari, xizmatlarni sotib olish usullari; loyihani amalga oshirish jadvali muddatlari, fazalari va bajarish mumkinligi, natijalar olish fazalari tahlil

qilinadi.

Texnik ekspertizani o'tkazishda loyihada foydalaniladigan texnologiyaga alohida e'tibor berish kerak, bu esa o'z navbatida zamonaviy texnologiyalar to'g'risida axborotni yig'ish usullarini izlashni talab etadi.

Texnik ekspertiza loyihani joriy etishning ish rejasini tekshiradi va xarajatlarni tartibga solish tizimini belgilaydi (inflyatsiyani hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiritadigan xarajatlarni bo'lib chiqish, loyihaning asosiy jismoniy elementlari bo'yicha valyuta kurslari o'zgarishlarini inobatga olish).

Tijorat ekspertizasi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil o'tkazishni talab etadi. Resurslarni olish mumkinligi, sifati va ularning kelajakdagi narxlarini baholash; mahsulotga talab, marketing bo'yicha tadbirlar va mahsulot birligining taxminiy narxi; loyihaning tijorat jihatidan hayotchanligini aniqlash uchun xarajatlar va daromadlar.

Loyihaning tabiatiga qarab, uning samarali ishlashini ta'minlaydigan marketing bo'yicha tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkin: xaridorlar va sotuvchilar asosli qarorlar qabul qila olishlari uchun talab, taklif, narx bo'yicha bozor holati to'g'risida axborot olish, sotib olishni moliyalashtirish uchun kreditlarning mavjudligi, mahsulotni tashish, saqlash va sotish.

O'zbekiston sharoitlarida ekspertizani o'tkazish nuqtai nazaridan axborotning aniqligi muhim ahamiyatga egadir. Bu esa tegishli infratuzilmani tashqil qilishni talab etadi.

Loyiha ekspertizasining moliyaviy jihatlari loyihaning moliya rejasini tahlil qilishdan iborat bo'lib, unda quyidagi omillar hisobga olinadi: investitsiya loyihasining rentabelligi; moliyaviy risklarni baholash; agar loyiha moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lmasa loyihani amalga oshirish va ishlatish uchun fondlarning mavjudligi va ularning tuzilmasi; zarur tashqiliy o'zgartirishlar. Moliyaviy ekspertizada quyidagilarga aniqlik kiritiladi: yillik moliyaviy yakunlar; loyiha uchun mas'ul bo'lgal tashkilotning istiqbol bahosi, unga ekspluatatsiya xarajatlarini ko'rsatadigan foyda va zarar to'g'risida hisobot ham

kiradi; ta'mirlash bo'yicha xarajatlar; amortizatsiya ajratmalari; qarzar (zayomlar) bo'yicha foizlar.

Moliyaviy ekspertizada naqd pul harakati istiqbollari belgilash maqsadlari ko'zlanadi. Nakd pul harakati esa kapital qo'yilmalar, aylanma kapital, moliyalashtirish manbalari, shu jumladan o'z faoliyatini natijasida olingan daromadlar, jalb qilingan qarz kapitali va aktsiyalar shaklidagi kapitalni ko'rsatadi.

Moliyaviy ekspertizaning asosiy vazifalari moliyaviy istiqbollarning nechog'lik asoslanganligi; xarajatlarni kamaytirish yoki ishlab chiqarish faoliyati ko'rsatkichlarini yaxshilash mumkinligi; zarur aylanma kapital miqdori; qarzar bo'yicha to'lovlar qoplanishining ta'minlanganligi; boshqa majburiyatlar, masalan, loyiha bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarni moliyalashtirish majburiyatlari bajarilishini aniqlashdan iborat.

Iqtisodiy ekspertiza loyihani tadbiiq etishda milliy resurslardan foydalanish imkoniyatini aniqlaydi. Ushbu resurslardan foydalanishda, raqobat muhitining mavjudligini hisobga olgan holda, foydalanishning to'g'ri yoki noto'g'riligiga javob beradi. Bular bilan bir qatorda loyiha rejasini yaxshilash, uning samaradorligini ko'tarish imkoniyatlarini aniqlaydi.

Yirik va murakkab loyihalar ekspertizasi risklarni batafsil tahlil qilishni ham qamrab olishi kerak. Loyihada risklar darajasini kamaytirishga xizmat qiladigan turli o'zgarishlar kiritish mumkinligi ko'rib chiqiladi va sug'urga yo'li bilan ularni kamaytirish imkoniyatlari aniqlanadi. Loyiha ekspertizasining tijorat jihati zarur resurslar va xizmatlar (ta'minot bo'yicha kontrakt)ni sotib olish va ishlab chiqarilgan maqsulotni sotish (marketing) bo'yicha tadbirlarni qamraydi. Ta'minot bo'yicha kontrakt muhimroq, chunki samarasi past xarid faoliyati yanada ko'proq xarajatlarga olib kelishi va loyihadan olinadigan sof pul daromadi oqimini qisqartirishi mumkin.

Tarmoqqa oid masalalar va vazifalar loyiha ekspertizasidan ancha oldin belgilanadi, chunki yakka investitsiya loyihalariga davlatning tanglikka qarshi

investitsiya strategiyasining bir qismi tarzida qaralishi lozim. Bu strategiya raqobatni yaratishning asoslari tarzida iqtisodiyot tuzilmasini takomillashtirishga, kichik va xususiy biznesni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Loyihani ishlab chiqishdagi navbatdagi bosqich – muzokaralar hisoblanadi. Muzokaralar, odatda kredit hujjati loyihasi bo'yicha olib boriladi. Bu hujjat esa to'rt bo'limdan tashqil topadi: qarz oluvchi va kreditorning tavsifi; ssuda, uning muddatlari va foiz stavkasi; loyihaning umumiy bayoni va ishlab chiqariladigan tovar yoki ko'rsatiladigan xizmatlar (ularning hajmlariga sarflanishi mumkin bo'lgan kreditlar ko'rsatilgan holda); kreditlashning boshqa shartlari.

Kreditor va qarz oluvchi faoliyatni yaxshilashga qaratilgai hujjatlar haqida o'zaro kelishib olishlari mumkin (xo'jalik faoliyatini yaxshilash rejasi, nima qilish zarur va qaysi muddatlarda, moliyaviy faoliyatning vazifalari, boshqaruv apparati vazifalari, ehtimoli bo'lgan tuzilmaviy o'zgarishlar).

Keyingi bosqich – joriy qilish yoki loyihani amalga oshirishni rejalashtirish. Bu o'rinda rejalashtirish va tashqiliy masalalar ko'rib chiqiladi (muvofiglashtirishni tashqil etish, boshqarishni va loyihani bajarish bo'yicha nazorat tizimini tashqil qilish, loyihani amalga oshirish usullari).

Loyihaning nazorat bosqichida uch yo'nalish muhimdir. Bular loyihaning texnik jihatlari bo'yicha muhandislik-texnika nazorati; moliya resurslari bilan ta'minlovchi tomonidan loyiha ijrosining olib borilishining nazorati; loyihani tadbiq etish uchun kredit beruvchi, ya'ni kreditor tomonidan olib boriladigan nazorat.

Loyihaning yakuniy bahosi joriy nazoratdan tubdan farq qiladi va loyihani retrospektiv qayta rejalashtirilishini iazarda tutadi. Mohiyat jihatdan loyiha rejasi qay tarzda amalga oshirilganligi va ekspluatatsiya qilingalligi uning belgilangan sharoitlarga qay darajada muvofiq kelishini aniq-ravshan ko'rsatib beradi. Loyihaning yakuniy bahosi ikkidan uch yilgacha ekspluatatsiya davri davomida o'tkaziladi. Yakunlovchi bahoning muhim vazifasi loyiha muvaffaqiyatli yoki barbod bo'lishi sabablarini aniqlashdan iboratdir. Bu esa

boshqa loyihalarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan alohida bir xususiyatlarni topishga, shuningdek xatolarga yo'l qo'ymaslik va kamchiliklarni tuzatish uchun o'zgartirishlar kiritish imkoniyatini yaratadi.

Yakuniy bahodan so'ng loyihaning umrboqiyligi (umri uzoqligi) aniqlanadi. Loyihaning umrboqiyligi deyilganda uning xo'jalik hayoti davomida umumiy foydali natijaning maqbul darajasini saqlab turish qobiliyati tushuniladi. Agar loyihadan olingan daromadlar oqimi bir qancha yilgi ekspluatatsiyadan keyin qayta hisoblanganda istiqboli aniqlangan foydadan ko'p yoki unga teng bo'lsa loyiha umrboqiy hisoblanadi. Agarda qayta hisoblab chiqilgan daromadlar kam chiqsa, loyihani chidamsiz (umri kalta) deb e'tirof etishga to'g'ri keladi. Loyihaning umrboqiyligiga to'rt guruhga mansub omillar ta'sir qiladi. Ular iqtisodiy (moliyaviy), texnikaviy, tashqiliy va strategik omillardir.

Loyihalarning ekologik ekspertizasi loyihani amalga oshirish joizligini aniqlaydi. Bunday ekspertiza quyidagilarni aniqlash maqsadlarida o'tkaziladi: istiqboli aniqlangan xo'jalik va boshqa faoliyatning uni amalga oshirish haqida qaror qabul qilinishiga qadar bo'lgan bosqichlarda ekologik talablarga muvofiqligi; ko'zlangan faoliyatning atrof-muhitga va fuqarolar sog'ligiga ta'sir ko'rsatishi va ekologik xavfliligi darajasi; atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha nazarda tutilayotgan choratadbirlarning etarli bo'lishi va asoslanganligi.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda qabul qilingan "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonuniga ko'ra quyidagilar davlat ekologik ekspertizasidan o'tkaziladi. Davlat dasturlari loyihalari, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish sxemalari, iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirish koptsepsiyalari; barcha turdagi qurilishlar uchun er uchastkalarini ajratish qarorlari; loyiha oldi va loyiha hujjatlari; tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq xo'jalik va boshqa xil faoliyatni tartibga soluvchi me'yoriy-texnik va yo'riq-uslubiy hujjatlarning loyihalari; texnika,

texnologiya, materiallar, moddalar, mahsulotlarning yangi turlarini yaratishga doir hujjatlar; atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ishlab to'rgan korxonalar hamda boshqa ob'ektlar va hokazolar.

Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish quyidagilarni aniqlashga qaratilgan: taqdim etilgan materiallarning tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshirish; rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik yoki boshqa xil faoliyatning ekologik va ijtimoiy oqibatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligi tahliliga; biologik, kimyoviy moddalar va texnologiyalarning atrof tabiiy muhitga ta'sirini baholashning asoslanganligiga; rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish oqibatlarining ekologik xavfliligi darajasini baholashning ishonchliligiga; ekologik normativlar asosida loyihalarning asoslanganligiga.

Davlat ekologiya ekspertisasi yakunlari bo'yicha loyihaii amalga oshirishning joiz-nojoizligi to'g'risida xulosa beriladi. Davlat ekologiya ekspertizasining ijobiy xulosasi loyihani moliyalashtirish va amalga oshirishga asos bo'ladi.

Banklarda ham investitsiya loyihalari ekspertiza qilinadi, agar loyihani moliyalashtirish uchun bank kreditlariga zarurat tug'ilganda.

Loyihani amalga oshirish strategiyasini dastlabki baholash ijobiy bo'lganda, bank boshqaruvining qaroriga asosan, bank mutaxassisi (loyiha menedjeri) kerakli mutaxassislarni jalb qilgan holda loyihani kompleks ekspertiza qilishga kirishadi.

Kompleks ekspertiza natijasida loyiha menedjeri loyiha bo'yicha barcha hujjatlarni va loyiha joylashishi kerak bo'lgan joyni borib o'rgangan holda quyidagilarni o'rganib chiqishi kerak: loyihaning moliyaviy jihatlari (loyiha qiymati, moliyalashtirish manbalari, rentabelligi, naqd pul oqimi shu jumladan: erkin konvertirlanadigan valyutada, korxonaning moliyaviy holati va balans hisobotlarining kelgusidagi prognozi); loyihaning texnik jihatlari (qurilishga

tayyorgarlik, uskunalarni olib kelish va loyiha smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan tartibda qurilish-montaj ishlarini olib borish uchun shartnomalarning mavjudligi va boshqalar); loyihaning marketing jihatlari (tayyor mahsulotni sotish, yig'uvchi materiallar va xom ashyoning mavjudligi, texnologik uskunalarning raqobatbardoshligi va marketingning boshqa jihatlari); loyiha yuridik jihatlari (qarz oluvchining, loyiha boshqa qatnashchilarining yuridik statusi, barcha tuzilgan shartnoma, kontrakt, ta'sis hujjatlarining qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlarga to'g'ri kelishi); loyihaning iqtisodiy jihatlari (loyihani amalga oshirishdan keladigan foyda va zararlar, loyihaning sof keltirilgan qimmati va boshqa jihatlari); loyihaning institutsional jihatlari (loyihani amalga oshiruvchilarning professional tayyorgarlik darajasi, xodimlarni o'qitish va boshqalar);

Loyiha menedjeri yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha jabhalarni ekspertiza qilgandan so'ng quyidagi qarorga kelishi kerak bo'ladi:

- loyihani ma'qullash va kerakli summani kredit tariqasida berish to'g'risida ijobiy xulosa berish;
- loyihaning kerakli hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish va undan keyin loyihani qayta ekspertiza qilish uchun taqdim etish;
- loyihani texnik iqtisodiy asoslashda ko'rsatilgan tadbirlar bo'yicha loyihani amalga oshirishning maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida xulosa berish.

## **I bob bo'yicha xulosa**

1. Ijtimoiy samaraga erishish maqsadidagi bir-biri bilan o'zaro bog'liq, bir-biri bilan aloqadorlikdagi murakkab tadbirlar yig'indisini o'zida mujassam etgan huquqiy-boshqaruv, texnik va moliyaviy hisoblar hujjatlari to'plamiga investitsiya loyihasi deyiladi.

2. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini



muvaffaqiyatli amalga oshirishning ahamiyati quyidagilar ko'rinadi: import o'rmini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirish va pirovardida, aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi; xorijiy investitsiyalarning samarali o'zlashtirilishi natijasida ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etilib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantiradi; tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi; resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi; korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.

3. Investitsiya loyihalari kompleks ekspertizasi – bu investitsiya loyahasini tizimli va yaxlit tarzda o'rganish, uning barcha jihatlarini tahlil qilish va baholash hamda ular nitajasi bo'yicha tegishli xulosalarni shakllantirish.

4. Investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi g'oyaning paydo bo'lishidan boshlab uning moddiylikka aylanishigacha bo'lgan jarayon uch fazadan: investitsiya oldi fazasi (boshlang'ich bosqich); investitsiya fazasi (o'rta faza yoki investitsiyalarning amalga oshirilish fazasi); ekspluatatsiya fazasi (yoki ishlab chiqarish, tugallash fazasi)dan iborat bo'lib, loyihaning kompleks ekspertizasi aynan investitsiya oldi fazasida amalga oshiriladi va bunda investitsiya loyahasining texnik-iqtisodiy asoslash ishlari amalga oshiriladi va u eng asosiy faza hisoblanadi.

## **II BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH AMALIYOTI TAHLILI**

### **2.1. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishning tartibi va huquqiy asoslari tahlili**

O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni moliyalashtirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirishning barcha huquqiy asoslari yaratilgan va takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, investitsiya faoliyatini amalga oshirish, uning erkinligi va rivojlanishini ta'minlash maqsadida uning huquqiy asosini mustahkamlash uchun "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlar milliy iqtisodiyotga ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikni mustahkamlashni va rivojlantirishni, ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirishni va mamlakatda investitsion faollikni yanada kuchaytirishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan.

O'z navbatida, mazkur qonunlar asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining prognoz ko'rsatkichlari va tahlili amalga oshiriladiki, bu iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan har qanday investitsiya loyihasining mazkur qonunga zid bo'lmagan maqsad, yo'nalish, sohalarda amal qilishi lozimligini ko'rsatadi.

Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish murakkab jarayon hisoblanadi va u aniq natijaviylikni ta'minlashi lozimligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mazkur jarayonni tartibga solish talab etiladi. Buning uchun zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish jarayonining asosiy huquqiy negizi bo'lib O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2007 yil 4 yanvardagi “Investitsiya loyihalarin ekspertizadan o’tkazish samaradorligini oshirish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-554-sonli Qarori hisoblanadi.

Mazkur qaror Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya loyihalarining ekspertizasini amalga oshirishda davlat va yakka tartibda yondashuvni ta’minlash, byurokratizm, rasmiyatchilik va sansalorlik faktlariga qat’iyan chek qo’yish va oldini olish, ekspertiza natijalari uchun mansabdor shaxslarning mas’uliyatini oshirish maqsadida qabul qilingan.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2007 yil 7 iyunda “Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o’tkazish va tasdiqlash tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 110-sonli Qarori qabul qilingan.

Mazkur qaror Investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, ekspertizadan o’tkazish va tasdiqlash mexanizmini takomillashtirish, shuningdek loyihalarni amalga oshirishni boshlash uchun tayyorgarlik tartibotlarini jadallashtirish maqsadida ishlab chiqilgan bo’lib, qaror asosida “Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o’tkazish va tasdiqlash tartibi to’g’risidagi Nizom” qabul qilingan va amaliyotga joriy etilgan.

O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi “Davarxitektqurilish” qo’mitasi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi bilan birgalikda o’z idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarini mazkur qarorga muvofiqlashtirgan holda investitsiya loyihalarining kompleks ekspertizasi tizimliliigi va samaradorligini ta’minlashga amal qilib kelmoqdalar.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan “Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o’tkazish va tasdiqlash tartibi to’g’risidagi Nizom” umumiy 7 ta bo’lim va unga ilova qilingan 6 ta hujjat materiallaridan tashkil topgan bo’lib, nizomda investitsiya

loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibining umumiy talablari belgilab berilgan.

Jumladan, loyiha oldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish tartibi, investitsiya loyihalarining DTIA (DTIH)ni ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi, investitsiya loyihalarining TIA(TIH)ni ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi, engil sanoat korxonalarini qurish, qayta ixtisoslashtirish va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarining TIA(TIH)ni ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash xususiyatlari, XMII va XHMT qarz mablag'larini jalb etgan holda amalga oshiriladigan loyihalarni tayyorlash va ko'rib chiqish tartibi, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari ishtirokida amalga oshiriladigan loyihalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash xususiyatlari ko'rsatilgan va belgilab berilgan.

Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan, ayniqsa, davlat ahamiyatiga molik strategik investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish aynan mana shu "Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida amalga oshiriladi.

Ushbu Nizom:

a) markazlashtirilgan manbalar resurslari hisobiga amalga oshiriladigan (Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari, ayrim tarmoqlar va korxonalarining Hukumat qarorlari bilan tashkil etilgan maxsus jamg'armalari mablag'lari, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida yoki nomidan jalb etiladigan xorijiy kreditlar, O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari) investitsiya loyihalari hujjatlarini;

b) ular yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari asosida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish nazarda tutilayotgan investitsiya loyihalari hujjatlarini;

v) mahsulot taqsimotiga oid bitimlarga muvofiq amalga oshirilayotgan

investitsiya loyihalari hujjatlarini;

g) ustav fondida davlat ulushi kamida 25 foiz bo'lgan korxonalar tomonidan markazlashtirilmagan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan, qiymati 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lgan investitsiya loyihalari hujjatlarini;

d) moliyalashtirish manbalari va loyiha qiymatidan qat'i nazar, engil sanoat korxonalarini qurish, qayta ixtisoslashtirish va modernizatsiya qilishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalari hujjatlarini;

e) moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar, strategik foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlashni nazarda tutuvchi, qiymati 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lgan investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizomning amal qilishi Hukumat qarorlari bilan investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlashning alohida tartibi belgilangan investitsiya loyihalari hujjatlariga tatbiq etilmaydi.

DTIA (DTIH)ni ishlab chiqish yuzasidan topshiriq loyiha tashabbuskori tomonidan ishlab chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi hamda Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishilgan holda tegishli vazirlik (idora) rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

DTIA (DTIH) loyiha tashabbuskori yoki uning buyurtmasi bo'yicha loyihalash tashkiloti yoki injiniring kompaniyasi tomonidan ishlanma yuzasidan topshiriq asosida ishlab chiqiladi.

Loyihaning DTIA (DTIH)ni ishlab chiquvchi, agar faoliyatning ushbu to'rini amalga oshirish uchun litsenziya olish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa, tegishli sohada ob'ektlarni loyihalashtirish uchun litsenziyaga ega bo'lishi kerak.

Loyihalashtirishning sifati uchun javobgarlik ishlab chiquvchiga yuklanadi. Tasdiqlangan DTIA (DTIH) moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojni, loyihaning cheklangan qiymatini belgilash, tanlov hujjatlarini ishlab chiqish, tanlov

savdolari o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

TIA/ТИH tasdiqlangan DTIA (DTIH), olingan moliyaviy takliflar yoki tuzilgan kredit va investitsiya shartnomalari, shuningdek o'tkazilgan tanlov savdolari natijalari asosida ishlab chiqiladi.

Ishchi hujjatlar tasdiqlangan TIA(ТИH)ning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqiladi.

Loyihani amalga oshirish shartlariga bog'liq holda investitsiya loyihasi hujjatlari quyidagicha izchillikda ishlab chiqiladi: a) DTIA - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish/tanlov hujjatlari - TIA - ishchi hujjatlar; b) DTIH - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish/tanlov hujjatlari - ТИH - ishchi hujjatlar; v) ishchi loyiha-tanlov hujjatlari.

Investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarni ko'rib chiqish va tayyorlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) O'zbekiston Respublikasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan - DTIA (DTIH) hamda tegishli vazirliklar va loyiha tashabbuskorlari bo'lgan idoralarning - Shaharsozlik kodeksi talablariga, normativ hujjatlar talablariga va qabul qilinayotgan qurilish qiymatining qaror topgan bozor kon'yunkturasi darajasiga muvofiqligi yuzasidan tarmoq xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda;

b) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasining quyidagilar bo'yicha xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha - iqtisodiyotni barqaror, mutanosib rivojlantirishni ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishni, tarkibiy qayta o'zgartirishlarni, tarmoqlararo kooperatsiyalashni amalga oshirishni, investitsiya siyosatini ro'yobga chiqarishni, ishlayotgan quvvatlardan foydalanishni, shuningdek xom ashyo va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozori kon'yunkturasini ta'minlash nuqtai nazaridan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha - ijtimoiy ahamiyatini, ijtimoiy sohaning alohida tarmoqlarini va "boshqa tarmoqlar"ni rivojlantirish bo'yicha Hukumat qarorlariga muvofiqligini ishlab to'rgan quvvatlardan foydalanishni va ularni joylashtirishni maqbullashtirishni hisobga olgan holda baholash yuzasidan;

v) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) hamda "Davarxitektqurilish" qo'mitasining tavsiya etilayotgan marketing kontseptsiyasi, tayyor mahsulotni sotish istiqbollari asosida jahon bozori kon'yunkturasi, shuningdek tavsiya etilayotgan texnologiyaga muvofiq asbob-uskunalarining narxlarning cheklangan parametrlari nuqtai nazaridan loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash yuzasidan xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda.

Tashabbuskor tomonidan talab qilinayotgan asbob-uskunalar (texnologik liniya), shu jumladan yakka tartibda tayyorlanayotganlarining to'liq va mufassal spetsifikatsiyasini taqdim etish mumkin bo'lmagan taqdirda asbob-uskunalarining narxlarining cheklangan parametrlari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan TIA(TIH)ni ekspertizadan o'tkazish jarayonida baholanishi mumkin. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligi o'z vakolatlari doirasida tashabbuskorga investitsiya loyihalarining DTIA (DTIH)ni ishlab chiqishda prognozlanayotgan uch besh yillik davr uchun ichki va tashqi bozorlar marketingini ishlab chiqishni tashqil etishda ko'maklashadilar;

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining quyidagilar bo'yicha xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha - loyihaning moliya-iqtisodiy samaradorligini va qoplanuvchanligini baholash, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojni aniqlash, shuningdek loyihani moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan variantlarini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha - loyihani amalga oshirishning mumkin bo'lgan variantini tanlash, moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan sxemasining maqbulligi, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan;

d) xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining loyihaning iqtisodiy samaradorligi, loyiha tashabbuskorlarining kredit tarixini o'rganish, pul oqimlari tahlili, tavakkalchiliklarni baholash va loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda. Moliyalashtirishni byudjet mablag'lari hisobiga (boshqa manbalardan foydalanmasdan) amalga oshirish nazarda tutilayotgan ob'ektlar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi bankning ekspert xulosasi talab qilinmaydi.

Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlar, jalb etilayotgan kreditlarni to'lash uchun mablag'lar defitsitini byudjet mablag'lari hisobiga uzishni nazarda tutadigan DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarida nazarda tutilayotgan byudjet mablag'larining maqsadga muvofiqligi (muvofiq emasligi) hamda hajmlari, shu jumladan soliq imtiyozlari berish to'g'risidagi xulosalar mavjud bo'lishi kerak.

Loyihaning tasdiqlangan DTIA (DTIH) parametrlari, shu jumladan, xarajatlar turlari bo'yicha moliyalashtirishning cheklangan limitlari asosida loyiha tashabbuskori tomonidan, belgilangan tartibda: a) moliyalashtirish manbalari belgilanadi va kelishiladi; b) pudratchilarni va loyiha bo'yicha xarid qilinadigan texnologik – asbob-uskunalarini etkazib beruvchilarni aniqlash uchun tanlov hujjatlari ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli kompleksi rahbari tomonidan tasdiqlangan DTIA (DTIH), tanlov savdolari natijasida tanlab olingan texnologik va boshqa asbob-uskunalar bo'yicha takliflar asosida,



moliyalashtirishning ishlab chiqilgan manbalari va shartlarini hisobga olgan holda loyiha tashabbuskori tomonidan investitsiya loyihasining TIA (TIH) ishlab chiqiladi.

Loyihaning TIA(TIH)ni ekspertizadan o'tkazish u taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va moliyalashtiruvchi bank, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan va vakolatli ekspertiza organlarining vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Loyiha tashabbuskori Vazirlar Mahkamasining tegishli Axborot-tahlil departamentiga TIA(TIH)ni kiritadi.

Vazirlar Mahkamasining tegishli Axborot-tahlil departamenti Vazirlar Mahkamasining qabul qiladigan qarori loyihasini ko'rib chiqadi va Vazirlar Mahkamasining Ish tartibiga muvofiq hujjatlarni tasdiqlash uchun kiritadi.

Loyihaning TIA(TIH)ning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari loyihani amalga oshirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qabul qiladigan qaroriga ilova sifatida tasdiqlanadi.

Bugungi kunda respublikamizda aksariyat tijorat banklarida investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda ishlab chiqilgan loyiha texnik-iqtisodiy asosnomasi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

1. Kirish.
2. Loyihadagi operatsiyalar.
3. Loyiha afzalliklari va foydaliligi.
4. Loyiha ta'rischilari va homiylari.
5. Loyiha bo'yicha bitimlar (shartnomalar) qiymati.
6. Loyiha moliyalashtirish rejasi.
7. Loyihadagi xom ashyo va boshqa xarajatlar.
8. Loyiha bo'yicha tovar va xizmatlar, sotish bozorlari.
9. Loyiha tashkiliy masalalari.
10. Loyiha bo'yicha mulk va uskunalarni sug'urtalash.

11. Loyiha bo'yicha atrof-muhitni muhofaza qilishga doir ma'lumotlar.
12. Loyiha bo'yicha qonun va qoidalar.
13. Loyiha bo'yicha texnologiya va uskuna.
14. Loyihani kreditlashda banklarning o'rni.
15. Loyiha bo'yicha kafolatlar.
16. Loyiha quvvati va uning yillar bo'yicha o'zlashtirilishi.
17. Loyihadagi tayyor mahsulotning yillar bo'yicha sotilishi.
18. Loyiha bo'yicha xarajatlar.
19. Loyiha bo'yicha kredit to'lovlari va foizlarning yillar bo'yicha hisob-kitobi.
20. Loyiha bo'yicha daromadlar jadvali.
21. Loyiha bo'yicha joriy aktivlar va passivlarning, aylanma kapital (ishchi kapitali)ning hisob-kitobi.
22. Loyiha bo'yicha pul oqimi hisob-kitobi.

## **2.2. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish orqali uning samaradorligini baholash**

Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi va uni amalga oshirishning asosiy maqsadi investitsiya loyihalarining milliy valyutadagi kabi xorijiy valyutada ham qoplanishini aniqlash hisoblanadi.

Jahon amaliyoti investitsiya loyihalarining kompleks ekspertiza qilish uslubiyoti ancha oldin ishlab chiqilganligi va ularning iqtisodiy hayotda keng qo'llanilayotganligini tasdiqlaydi. Mazkur uslubiyot har qanday investitsiya loyahasining daromadlilikini, samaradorligini, foydaliligini hamda ularning jalb etuvchanligini aniqlab bera oladi. Lekin ayrim hollarda investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda barcha uslubiyotlarni qo'llash zaruriyati tug'ilmasligi ham mumkin. Bu uslubiyotlarning qo'llanilishi ekspertiza


qilinayotgan har bir loyihaning o'ziga xos jihati va xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Shuni alohida ta'kidlash joizki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida investitsiyalar samaradorligining barcha jihatlarini qamrab oladigan biron bir yagona ko'rsatkich yoki uslubiyot yo'q.

Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish nazariyasi umumiy holatda ishonchli va ob'ektiv xulosaga olib keluvchi analitik usullar va ko'rsatkichlarning muayyan tizimidan foydalanishni ko'zda tutadi. Ko'p hollarda, investitsiya loyihalarini baholashda ikki guruhga umumlashtiriluvchi oltita usuldan tez-tez foydalanadi: Birinchi guruh bu - diskontlash kontseptsiyasini qo'llashga asoslangan usullar: sof joriy qiymatni aniqlash usuli; foydaning ichki me'yorini hisoblash usuli; investitsiyalarning rentabelligini hisoblash usuli; diskontlashning qoplash muddatini hisoblash usuli. Ikkinchi guruh bu - diskontlash kontseptsiyasini qo'llashni nazarda tutmaydigan baholash usullari: qoplash muddatini hisoblash usuli; investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligini aniqlash usuli.

Har qanday loyihaning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan baholanishi pul oqimlari xaqidagi ma'lumotlarga asoslanadi (2.1-rasm). Loyiha samaradorligini baholashda pul oqimlarini rejalashtirish va ularni hisobga olish jarayoni asosiy o'rinni egallaydi. Chunki bu jarayon loyihalarning haqiqiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Biroq, maqsad loyiha bo'yicha yakuniy qarorlarni qabul qilish to'g'risida borganda, investorni boylikni o'stiruvchi tushumning qanchaligi, pul mablag'lari tushumi va chiqimigina emas, balki korxonaning byudjet oldidagi majburiyatlardan holi bo'lgandagi, ya'ni soliqlarni to'lagandan keyingi natija (foyda) qiziqtiradi.

Pul oqimiga asoslangan holda investitsiya loyihalari samaradorligin aniqlash bugungi kunda o'z samarasini ko'rsatayotgan baholash uslubiyotlaridan hisoblanadi va mazkur uslubiyot YuNIDO uslubiyoti hisoblanib, investitsiya loyihasi samaradorligini baholashning xalqaro YuNIDO uslubi bo'yicha baholash va tahlilning muhim jihatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

investitsiya qarorlarining asosiy mezonlari; qo'yilmalarni baholash va loyiha qaytimi; loyihaning hayotiylik davri va uni gorizont rejalashtirish; risk, noaniqlik va boshqalarni baholashga asoslanishi.



## 2.1-rasm. Investitsiya loyihasi bo'yicha pul mablag'lari oqimi<sup>24</sup>.

Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda diskontlash kontseptsiyasiga asoslangan va asoslanmagan baholash usullari loyiha samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi va quyida ularni batafsil ko'rib chiqamiz.

### 1. Investitsiyalarning qoplash muddatini hisoblash usuli (PP).

Investitsiyalarning qoplash muddatini hisoblash usuli pul oqimlarini diskontlashga asoslangan usullardan farqli ravishda investitsiyalarning nominal miqdorda qaytarilishi mumkin bo'lgan davrni aniqlashga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, bu usul investitsiya loyihasini amalga oshirishdan olinadigan daromadlar hisobiga qilingan investitsiya sarflarini qoplash davrini aniqlashga asoslangan. Qoplash muddatini aniqroq tushunadigan bo'lsak, bu loyihani yakunlash davridagi yoki, umuman, undan olingan daromad investitsiyalar summasiga teng bo'lgandagi davrga tengdir. Uni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$PP = \frac{I_0}{CF_t^{(\Sigma)}} , \quad (2.1)$$

bu erda:  $I_0$  – boshlang'ich investitsiyalar;  $CF_t^{(\Sigma)}$  - investitsiya loyihasini amalga oshirishdan olingan yillik pul tushumi summasi. U sof foydani yoki yillik daromad (D) va xarajat (X) o'rtasidagi (amortizatsiyasiz A) farqni ifodalaydi.

Qoplash muddatini hisoblashda ikkita yondashuv mavjud. Birinchi yondashuvda investitsiyalarning boshlang'ich summasi yillik tushumlarning (o'rtacha yillik) miqdoriga bo'linadi. Ikkinchi yondashuv investitsiya loyihasini amalga oshirishdan olinadigan pul tushumlari miqdorining o'sib boruvchi (farqli tushumlarning) yakuni (yig'indisi) sifatda izohlanadi.

Ushbu usulning asosiy afzalliklari qoplash muddatini aniqlashda bajariladigan hisob-kitob ishlarining oddiyligi, qulayligi va tushunarlilikidadir. Kamchiligi kelgusi davrlardagi pul tushumlari qiymatini hisobga olishga qodir

---

<sup>24</sup> Jo'raev A. va boshqalar. Investitsiya loyihalari tahlili. O'quv qo'llanma. T.: Sharq, 2003 yil, 102-bet.

emasligi, shuningdek, uni investitsiya loyihasining daromadlilikini aniqlashda qo'llab bo'lmasligidadir. Bu usul investorning qancha vaqt mobaynida o'z kapitali bilan tavakkalchilikka yo'l qo'yishini tasavvur qilishga yordam beradi.

**2. Investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligini aniqlash usuli (rentabellik darajasi) (ARR yoki ROI).** Bu ko'rsatkich buxgalteriya hisoboti ma'lumotlariga asoslangan holda aniqlanadigan o'rtacha daromadni investitsiyalarning o'rtacha yillik hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi. Bunda hisob-kitob ishlari foizlarni va soliqlarni to'lamasdan avvalgi foyda miqdoriga asoslanib amalga oshirilishi mumkin yoki u soliqlarni to'lagandan keyingi, lekin foiz to'lovlarigacha bo'lgan daromadga asoslanadi. Eng yaxshisi, soliq to'langandan keyingi sof foyda miqdori tanlab olinganligi afzalroqdir, chunki u korxonaga ta'sischi va investorlar oladigan haqiqiy foydani ifodalaydi.

U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$ARR = \frac{D(1 - C_c)}{(C_a^s - C_a^0)/2}, \quad (2.2)$$

bu erda: **D** – foiz va soliq to'lovlarigacha yoki soliq to'lanib, foizlar to'langungacha bo'lgan daromad; **S<sub>s</sub>** – soliq to'lash stavkasi; **S<sub>a<sup>b</sup></sub>**, **S<sub>a<sup>o</sup></sub>** - aktivlarning ko'rib chiqilayotgan davriga bo'lgan boshlang'ich va oxirgi summasi, qiymati.

Mazkur usulni boshqacha yo'l bilan ham hisoblash mumkin. Buning uchun, avvalo, investitsiyalarning amortizatsiyasi me'yorini hisoblash lozim. U quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Амортизация} = \frac{I_0 - SV}{T}, \quad (2.3)$$

bu erda: **SV** – qoldiq qiymat; **T** – loyiha muddati.

Bunday holda investitsiyalarning rentabellik darajasi (ARR)ni aniqlash formulasi quyidagi ko'rinishni kasb etadi.

$$ARR = \frac{CF - \text{Амортизация}}{I_0} * 100\%, \quad (2.4)$$

bu erda: **SF** – yillik pul tushumlari.

Ushbu ko'rsatkichning afzalligi quyidagilardan iborat: hisob-kitobning

sodda va tushunarligi; loyihaning foydaliligini ko'rsatishi; loyihaning butun hayotiylik davrini ko'rsatishi. Kamchiliklari esa kelgusi pul tushumlarining qiymatini joriy vaqtga nisbatan hisobga olmasligidadir.

**3. Investitsiya loyihalari samaradorligini diskontlashning sof joriy qiymat usuli asosida baholash (NPV).** Bu qiymat – investitsiyalash ob'ektidan foydalanish davrida oldindan qat'iy belgilangan va o'zgarmas foiz stavkasi (me'yori)da olinadigan daromadlar va qilinadigan xarajatlarning alohida muayyan davrdagi barcha kirim va chiqimlarining diskontlashtirilishi yo'li bilan olingan va ular o'rtasidagi farqni ifodalovchi qiymat. Uning mohiyati yillik sof pul oqimi miqdori har bir davr uchun loyihani amalga oshirishning boshlang'ich yiliga keltirish va muayyan vaqt oralig'i bo'yicha xarajatlar va daromadlarning farqlanishidagi sof diskontlangan daromad (diskontlangan daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq)ni ifodalaydi.

Uni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$NPV = \frac{CF_1}{(1+k)^1} + \frac{CF_2}{(1+k)^2} + \dots + \frac{CF_t}{(1+k)^t} - I_0 = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} - I_0, \quad (2.5)$$

bu erda: **NPV** – sof joriy qiymat; **k** – diskontlash stavkasi; **CF<sub>t</sub>** - **t** davr oxirida kelib tushgan pul oqimi (tushumi).

Diskont stavkasi me'yori kapital bozoridagi uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foiz stavkasiga yoki ssuda oluvchi tomonidan to'lanadigan foiz stavkasiga, haqiqatda, teng bo'lishi kerak. Boshqacha so'z bilan aytganda, diskont me'yori investorning o'zi uchun undan pasti (kichigi) samarasiz deb hisoblagan minimal foyda me'yori bo'lishi kerak.

Agar investitsiya loyihasi yillar davomida moliyaviy resurslarning ketma-ket investitsiyalanishini talab etsa, u holda NPV ni hisoblash quyidagicha bo'ladi:


$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} - \sum_{t=1}^n \frac{I_t}{(1+k)^t}, \quad (2.6)$$

bu erda: **I<sub>t</sub>** - **t** davrdagi investitsiyalar sarfi.

NPVni hisoblashda, odatda, doimiy stavka qo'llaniladi. Ammo, ba'zi bir vaziyatlarda, masalan, hisob (foiz) stavkasining o'zgarishi kutilayotgan paytda yillar bo'yicha individual diskontlash stavkasidan foydalanish lozim.

Bu ko'rsatkich boshlang'ich investitsiya miqdorining, ya'ni investor boyligining qanchalik o'sishini miqdoriy jihatdangina ko'rsata oladi, xolos. Lekin investitsiyalashning naqadar samaradorligini aniqlashda miqdoriy o'zgarishlar va natijalarning o'zi etarli hisoblanmaydi. Buning uchun investitsiyalarning qanday nisbiy o'sishga egaligini va uning darajasini aniqlash uchun boshqa baholash usullaridan foydalanishga to'g'ri keladi.

**Foydaning ichki me'yori usuli (IRR)** - bu pul tushumlarining diskont qiymati pul chiqimlarining diskont stavkasiga teng bo'lgandagi daromadlilik darajasi. Boshqacha so'z bilan aytganda, loyihadan olingan sof tushumlarning diskontlangan qiymati investitsiyalarning diskontlangan qiymatiga, sof joriy qiymat esa nolga teng bo'lgandagi diskont me'yoridir. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun sof joriy qiymatni aniqlashda ishlatilgan formuladan foydalaniladi va sof joriy qiymat nolga tenglashadigan minimal foiz stavkasi topiladi. Aynan shu foiz stavkasi foydaning ichki me'yori usuli deb nomlanadi. Uni quyidagi rasm orqali fiodalash mumkin:



2.2-rasm. Investitsiyalarning joriy qiymati bo'yicha to'liq qoplanish darajasini



## foydaning ichki me'yori usuli orqali aniqlash<sup>25</sup>

Uni hisoblash formulasini quyidagi tenglamada ifodalash mumkin:

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} - I_0 = 0 \quad (2.7)$$

Bu erda  $k$  miqdorni topish lozim bo'ladi. Topilgan miqdor foydaning ichki me'yori deb nomlanadi. Bu me'yor sof joriy qiymat nolga teng bo'lib, investitsiya loyihasi firmaning boyligi o'sishini ta'minlamasligini va uning kamayishiga ham yo'l qo'ymasligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy tabiatiga ko'ra, foydaning ichki me'yoriga quyidagilarni yaqin tutish mumkin:

- banklar tomonidan o'zining jamg'arma hisob-raqamlari bo'yicha daromadlilikning haqiqiy yillik stavkasini;
- yil davomida bir martadan ortiq qarzlarni qoplash kuchidagi murakkab foiz sxemasi bo'yicha hisoblangan bir yillik ssuda uchun haqiqiy foiz stavkasini.

Yuqoridagi formula (6.4) ni boshqacha ko'rinishda ham ifodalash mumkin:

$$IRR = k_1 + \frac{P(k_2 - k_1)}{P + N}, \quad (2.8)$$

bu erda:  $P$  (positive) –  $k_1$  past (kichik) foiz (diskont) stavkasidagi sof joriy qiymatining ijobiy miqdori;  $N$  (negative) –  $k_2$  yuqori foiz stavkasidagi sof joriy qiymatning salbiy miqdori;  $P$  va  $N$  – har doim ijobiy (musbat) miqdorga ega;  $k_1$  va  $k_2$  – bir yoki ikki punktdan (foizdan) ortig'iga farq qilishi kerak emas.

**Investitsiyalarning rentabelligi usuli (PI)** diskontlashtirilgan daromadlarning diskontlashtirilgan investitsiya xarajatlariga nisbatini hisoblab topishga asoslangan. U qanday holatda investor boyligi o'sishi mumkinligini ko'rsatib beradi va quyidagicha aniqlanadi.

$$PI = \left[ \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} \right] / I_0 \quad (2.9)$$

bu erda:  $CF$  –  $t$  davrda olingan pul tushumlari.

Investitsiya rentabelligi ko'rsatkichi firma (yoki investor) mablag'lari

<sup>25</sup> Iqtisodiy adabiyotlarni nazariy o'rganish asosida tuzildi.

(boyli) 1 so'm hisobida qanday hollarda o'sishini aniqlash imkonini beradi. Bu o'sish olingan daromad hisobiga ta'minlanadi.

Agar investitsiya sarflari turli davrlarda (uzoq) amalga oshirilsa, formula quyidagicha tus oladi:

$$PI = \left[ \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} \right] / \left[ \sum_{t=1}^n \frac{I_t}{(1+k)^t} \right], \quad (2.10)$$

bu erda:  $I_t$  – t yildagi investitsiyalar.

Investitsiyaning rentabellik ko'rsatkichi natijasi yordamida loyiha bo'yicha quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- agar  $PI > 1$  bo'lsa, u holda loyihani amalga oshirish mumkin;
- agar  $PI < 1$  bo'lsa, u holda loyihani amalga oshirib bo'lmaydi;
- agar  $PI = 1$  bo'lsa, u holda loyiha foyda ham, zarar ham keltirmaydi.

**Investitsiyalarning diskontlangan qoplash muddatini (DPP)** hisoblash ishi diskontlashgan yillik pul tushumlarini diskontlashgan investitsiyalarga bo'lish orqali amalga oshiriladi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$DPP = \frac{I_0}{DCF^{(\Sigma)}}, \quad (2.11)$$

bu erda:  $DCF^{(\Sigma)}$  – diskontlashtirilgan yillik pul tushumlari.

Bu hisoblash usuli qilingan investitsiyalarning joriy (real) qiymati bo'yicha to'liq qoplanish muddatini tavsiflab beradi va shu jihatdan u investitsiyalarning qoplash muddati usulidan farqli ravishda afzalroq hisoblanadi. Bu ko'rsatkichning afzalligi ko'rsatkichi ularning sof joriy qiymatda to'liq qoplanishining aniq davrini tavsiflab beradi. Kamchiligi esa, qilingan investitsiya qoplangandan so'ng uning samaradorligini ko'rsatib bera olmaydi va uni loyihaning foydaliligini aniqlashda qo'llab bo'lmaydi.

### **2.3. “Mir” investitsiya loyihasini kompleks ekspertiza qilish va baholash**

Biz investitsiya loyihasini kompleks ekspertiza qilish amaliyotida

bajariladigan ishlarni chuqurroq o'rganish va yoritish maqsadida "Mir" investitsiya loyihasini tahlil qilib chiqish va uning amalga oshirishi uchun samaradorlik jihatlarini asoslashni maqsad qilib oldik.

Mazkur investitsiya loyihasini kompleks ekspertiza qilishda texnik-iqtisodiy asoslash tarkibi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan: kirish; tarmoqdagi faoliyati tahlili; loyiha strategiyasi; loyiha qiymati; moliyalashtirish rejasi; xom ashyo va materiallar ta'minotining joriy xarajatlari; tovar va xizmatlar, marketing; mulk va uskunalarni sug'urtalash; loyihaning ekologik jihatlarini; loyiha bo'yicha texnologiya va uskunalari; loyhani moliyalashtirishda bankning roli; kredit ta'minoti; loyiha quvvati va uning yillar bo'yicha o'zlashtirilishi; loyiha xarajatlari; kredit va u bo'yicha foizlar to'lovining hisob-kitobi; loyiha daromadlari; joriy aktivlar, passivlar va aylanma kapital hisob-kitobi; loyiha bo'yicha pul oqimi hisob-kitobi; loyiha bo'yicha umumiy xulosa.

Quyida yuqorida keltirilgan bo'limlar bo'yicha loyihani baholash ishini amalga oshiramiz. Ko'rib turganingizdek, maskur loyihaning TIAsi 18 bo'limdan tashkil topgan.

**1-bo'lim.** "Mir" xususiy firmasi 1993 yil 12 iyunda tashkil etilgan. Firma ta'sischisi D. Murodov. Faoliyatining asosiy yo'nalishi o'simlik yog'i va boshqa iste'mol mahsulotlar ishlab chiqarish hamda savdo-vositachilik faoliyatini amalga oshiradi. O'zbekiston qonunlariga muvofiq, "Mir" xususiy korxonasi mikrofirma hisoblanadi (jami 16 kishi). Amalga oshirilayotgan loyihaning maqsadi sifatli o'simlik yog'i ishlab chiqarish va aholini ushbu mahsulotga bo'lgan talabini qondirishdir. Ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun uskuna o'rnatish "Konstruktor" OAJ tomonidan amalga oshiriladi.

**2-bo'lim.** O'zbekistonda, asosan, saflar, araxis, pista va soya yog'lari ishlab chiqariladi. Birinchi o'rinda saflar yog'i (65,3%), ikkinchi o'rinda (20,7%) va uchinchi o'rinda soya yog'i (14%). Respublika bo'yicha o'rta hisobda har yili 225 ming tonna o'simlik yog'i ishlab chiqariladi va bu ko'rsatkich har yili oshib boradi. O'simlik yog'ini asosiy ishlab chiqaruvchilar

“Yog’moysanoat” uyushmasi (99%) hamda qo’shma korxonalaridir (0,05%). Yog’ mahsulotlarini asosiy ishlab chiqaruvchilar Indoneziya, Hitoy, Hindiston, Malayziya, Braziliya mamlakatlari hisoblanadi. Jahon bozorida o’simlik yog’i narxining tushishi yoki ko’tarilishi asosan, mazkur o’simlik etishtiriladigan joylarda ob-havo sharoiti ahvoliga, eksport va import darajasiga hamda boshqa yog’ mahsulot turini iste’mol qilishga bog’liq bo’ladi.

**3-bo’lim.** Loyiha bo’yicha yiligi 385 mingta idish hajmida o’simlik yog’ini ishlab chiqarishni tashkil etish yo’li bilan “Mir” firmasining ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish rejalashtirilgan hamda respublika ichki bozorini yuqori sifatli o’simlik yog’i bilan ta’minlaydi. Ushbu maqsadda “Mir” firmasi uskunalar sotib olish uchun “Konstrutor” OAJ bilan shartnoma imzoladi.

**4-bo’lim.** Loyihaning boshlang’ich qiymati 231585 dollarni tashkil qiladi. Uning 157289 dollari xorijiy valyutada, 75296 dollari (kurs bo’yicha) milliy valyutada beriladi. Shuningdek, 231585 dollarning 37 foizi qarz oluvchining o’z mablag’i, 63 foizi qarz mablag’idir. Loyihaning qiymati va kreditning taqsimlanishi 2.1 va 2.2-jadvallarda tasvirlangan.

**2.1-jadval.**

**Loyihaning umumiy qiymati<sup>26</sup>**

<b>№</b>	<b>Ko’rsatkichlar</b>	<b>Milliy valyuta</b>	<b>Xorijiy valyuta</b>	<b>Jami</b>	<b>Tarkibi, %da</b>
1.	Bino va infrastruktura	56372	-	56372	24,34%
2.	Sotib olinayotgan uskunaning sof qiymati	-	127000	127000	54,84%
3.	Transport xarajatlari	-	7421	7421	3,20%
4.	Sug’urtalash va montaj ishlari	-	9579	9579	4,14%
5.	Xodimlarni o’qitish	-	3000	3000	1,30%
<b>Jami</b>		<b>56372</b>	<b>147000</b>	<b>203372</b>	<b>87,82%</b>
6.	Ishchi kapitali	6281	-	6281	2,71%
7.	Kredit foizlari, boshqaruv uchun komissiya va ishlab chiqarish oldi davri mobaynidagi majburiyatlar	100	8820	8930	3,86%
8.	Import xom ashyo uchun QQS	-	-	-	0,00%
9.	Boshqa moliyaviy xarajatlar	9369	1470	10839	4,68%
10.	Kutilmagan xarajatlar	2164	-	2164	0,93%
<b>Loyihaning jami boshlang’ich qiymati</b>		<b>74296</b>	<b>157289</b>	<b>231585</b>	<b>100%</b>

<sup>26</sup> «Mir» investitsiya loyahasining texnik-iqtisodiy asosnomasi ma’lumotlari asosida tuzildi.


Loyiha qiymatida eng ko'p mablag' ulushini sotib olinayotgan uskunaning sof qiymati (54,84%) hamda bino va infrastruktura (24,34%) egallaydi.

2.2-jadval.

**Kreditning taqsimlanishi<sup>27</sup>**

№	Loyihaning nomi	O'simlik yog'ini ishlab chiqarish
1.	Ishlab chiqariladigan mahsulot	O'simlik yog'i
2.	Ishlab chiqarish quvvati	Soatiga 420 kg xom ashyoni qayta ishlaydi
3.	Loyihaning qiymati	231585
4.	O'z kapitali	84586
5.	Milliy bank krediti	147000

**5-bo'lim.** Loyihaning moliyalashtirish manbasi ikki qismga bo'lingan: "Mir" firmasining o'z mablag'lari va Milliy bankda kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun ochilgan xorijiy kredit liniyasini mablag'i. Uni quyidagi rasm asosida ifodalaymiz.



2.3-rasm. Loyihani moliyalashtirish manbasi<sup>28</sup>

Loyihaning moliyaviy rejasiga ko'ra, jami moliyalashtirish summasining 37 foizi korxonaning o'z kapitaliga tegishlidir, bu esa korxonaning kapitali miqdorining loyiha tarkibida 1/3 qismidan ortig'ini, jami moliyalashtirishda kredit ulushi 63 foizni tashkil etadi (2.3-jadval).

**6-bo'lim.** Loyiha bo'yicha o'simlik yog'ini ishlab chiqarish uchun xom

<sup>27</sup> «Mir» investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asosnomasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

<sup>28</sup> «Mir» investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asosnomasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

ashyolar tuzilgan shartnomalarga muvofiq quyidagilardan etkazib beriladi: “Abdumalik” shirkat xo’jaligi (250 tonna); “Buston” fermer xo’jaligi (100 tonna); “A.Timur” fermer xo’jaligi (500 tonna); “Navo” ijara xo’jaligi (350 tonna); “Zafar” kooperatsiya xo’jaligi (450 tonna); “Shuxrat” shirkat xo’jaligi (500 tonna).

2.3-jadval.

Loyihaning moliyaviy rejasi<sup>29</sup>

№	Ko’rsatkichlar	Milliy valyuta	Xorijiy valyuta	Jami	Tarkibi	
1.	“Mir” xususiy firmasining o’z kapitali	74296	10290	84586	100%	
2.	<b>O’z kapitali jami</b>	<b>74296</b>	<b>10290</b>	<b>84586</b>	<b>100%</b>	<b>37%</b>
3.	Kreditlar	-	-	-	-	-
4.	Milliy bank krediti	-	147000	147000	100%	
5.	<b>Jami kreditlar</b>	-	<b>147000</b>	<b>147000</b>	<b>100%</b>	<b>63%</b>
6.	<b>Jami moliyalashtirish</b>	<b>74296</b>	<b>157289</b>	<b>231585</b>		<b>100%</b>

O’simlik yog’ini ishlab chiqarish uchun xom ashyoga bo’lgan yillik ehtiyoj 1,7 ming tonna. Xom ashyo faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilardan sotib olinadi. Xorijiy valyutadagi qo’shimcha xarajatlar talab qilinmaydi.

O’zbekistonda o’simlik yog’idan foydalanish ommabop bo’lib, mazkur ishlab chiqariladigan yog’ raqobatbardosh hisoblanadi.

**7-bo’lim.** O’zbekistonda aholi sonining yildan-yilga o’sishini hisobga oladigan bo’lsak, mazkur mahsulotga bo’lgan talab ham oshib boradi. “Mir” firmasi mutaxassislari tomonidan olib borilgan marketing tadqiqotlari, o’simlik yog’ining butun yil davomida ko’p miqdorda iste’mol qilinishini ko’rsatadi, bu esa unga qo’yilgan narxlarning arzonligi va sifatligi bilan bog’lanadi. Ishlab chiqarilayotgan o’simlik yog’ini bozorga jalb qilishning asosiy omillaridan bo’lib, aholining tez sur’atlarda o’sishi va import qilingan yog’larning narx darajasidir. O’simlik yog’ining asosiy ulgurji iste’molchilari bo’lib, savdo tashkilotlari, supermarketlar, restoranlar, kafe va magazinlar, shuningdek,

<sup>29</sup> «Mir» investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asosnomasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

chakana tarzda sotib oluvchilardir.

Loyihaning asosiy jihati mahalliy xom ashyodan foydalanishdadir. Bu esa tayyor mahsulot qiymatiga ta'sir qiladi. Mahsulotning yuqori sifatliigi, narxning nisbatan pastligi, iste'molchilarga etkazib berish kanallarining kengligi mahsulotning bozorda muvaffaqiyatli sotilishiga garov bo'lib xizmat qiladi va mahsulot o'z xaridorini topishi ishlab chiqaruvchini dadil xarakat qilishga hamda oziq-ovqat mahsulotlari bozorida o'z o'rnini egallashiga imkon beradi.

Loyihaning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- loyihaning amalga oshirilishi aholining o'sib borayotganini hisobga olgan holda ushbu mahsulotga bo'lgan talabni qondiradi, import qilinuvchi yog'lar o'rnini bosa oladi;

- shartnoma bo'yicha sotib olinayotgan uskuna rag'obatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga imkon beradi vash u bilan milliy bozorlarni ushbu mahsulot bilan mo'l-ko'l ta'minlaydi;

- bo'sh ish o'rinlarini vujudga keltiradi.

Bunungi kunda O'zbekiston bozorlarida o'simlik (pista va h.k.) yog'i narxi 1 litr uchun 1200-1600 so'mgachani tashkil qiladi. Loyiha bo'yicha ishlab chiqariladigan qsimlik yog'i esa 1 litr uchun 0,80 AKSh dollari yoki 800 so'm atrofida bo'lishi mo'ljallangan.

**8-bo'lim.** "Mir" firmasi o'zining barcha mulkini, shuningdek, kredit hisobiga sotib olinayotgan uskunani "Uzbeksug'urta" kompaniyasi tomonidan 5 yilga sug'urta qildirishi rejalashtirilgan. Sug'urta to'lovi jami 7087 so'mni tashkil etadi.

**9-bo'lim.** O'simlik yog'ini ishlab chiqaruvchi mazkur texnologiya atrof-muhitni muhofaza qilishning amaldagi me'yorlariga muvofiq keladi. Tayyor mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida hech qanday zararli chiqindilar chiqarmaydi.

**10-bo'lim.** "Mir" rahbariyati tomonidan bir qancha mashhur firmalarning (OOO "Sfera 2000" (Rossiya), "Agrotexnik»"kompaniya (Italiya)) tijorat

asosidagi takliflari o'rganib chiqildi. Lekin "Konstruktor" kompaniyasining uskunasi quyidagi mezon asosida "narx-qiymat-sifat" tanlab olindi. Uskunani tanlab olishda "Mir" firmasi mutaxassislari quyidagi mezonlarga asoslandi: uskuna avtomatik tartibda ishlashi lozim; eng kam darajada qo'l mehnati talab qilishi lozim; mahalliy xom ashyoda ishlashi kerak; ishonchli bo'lishi kerak; "qiymat-ishlab chiqarish quvvati-sifati-mahsulot narxi" mezonlariga muvofiq bo'lishi lozim. Tuzilgan shartnomaga muvofiq, "Konstruktor" kompaniyasi 147 ming AQSh dollari miqdoriga teng bo'lgan qiymatdagi uskunani etkazib berishi kerak. Uskuna to'la quvvat bilan ishlaganda 1 yilda 385,6 mingta idishga mo'ljallangan (1 l: 920 gr) o'simlik yog'ini ishlab chiqaradi. Loyiha birinchi yilda maksimal texnologik quvvatning - 50%da, ikkinchi yili - 60%da, uchunchi yili - 80%da, to'rtinchi yildan boshlab - 90%da va oltinchi yilga borib - 95%da ishlaydi.

**11-bo'lim.** Mazkur loyihani amalga oshirishda bankning roli o'simlik yog'ini ishlab chiqarish bo'yicha import uskunani sotib olish uchun o'zaro foydali shartlarda xorijiy valyutada kredit taqdim etish bilan tavsiflanadi.

**12-bo'lim.** Uzbekiston banklari, shuningdek, xorijiy kredit liniyalari shartlariga muvofiq kredit bo'yicha garov ta'minoti kredit summasining 120%idan kam bo'lmasligi lozim. Kredit summasi 147000 AQSh dollarini tashkil etgan xolda garov ta'minoti 176400 AQSh dollariga teng bo'lishi kerak. Firmaning kredit bo'yicha garov predmeti 2.4-jadvalda aks keltirilgan.

**2.4-jadval.**

**"Mir" firmasining kredit bo'yicha garov predmeti<sup>30</sup>**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Garov perdmoti</b>	<b>Mulk qiymati</b>	<b>Garov uchun qabul qilinayotgan summa</b>	<b>Garovning mulk qiymatiga nisbatan foizi</b>
1.	"Mir" firmasi	Sotib olinayotgan uskuna	127000	76200	60%
2.	"Mir" firmasi	Bino va inshootlar	167000	100200	

<sup>30</sup> «Mir» investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asosnomasi ma'lumotlari asosida tuzildi.



<b>3. Jami</b>			<b>176400</b>	
----------------	--	--	---------------	--

Ko'rib turganimizdek, garov predmeti bo'lib, kredit hisobiga sotib olinayotgan uskuna hamda korxonaning bino va inshootlari qo'yilgan. Bu esa bank talablariga to'la javob beradi. 13-bo'lim. Loyihaning yillar bo'yicha quvvati va uning o'zlashtirilishi 10-bo'limda ham ko'rsatib o'tgan edik. Uskuna 95% quvvatda ishlaganda yiliga 366,8 ming dona maxsus idishda o'simlik yoyoi va 12 ming tonna jmo'x ishlab chiqaradi.

**14-bo'lim** - loyiha bo'yicha xarajatlar jadvali aniq hisob-kitoblar asosida amalga oshirilgan va iqtisodiy jihatdan asoslangan.

**15-bo'lim.** Kredit va u bo'yicha foizlar to'lovining hisob-kitobi 2.5-jadvalda aks ettirilgan.

**2.5-jadval.**

**Kredit bo'yicha foizlar quyidagi asosda hisoblangan<sup>31</sup>**

<b>№</b>	<b>Tanlash</b>	<b>Tanlab olingan summa</b>	<b>To'lov davri</b>	<b>Foizlar</b>
1	90%	132300	6	7938
2	10%	14700	6	882
3	0%	0	6	0
<b>Jami</b>		<b>147000</b>		<b>8820</b>

**16-17 bo'lim.** Loyiha bo'yicha daromadlar jadvali hamda pul oqimlari tahlili shuni ko'rsatadiki, loyiha sof pul oqimining yillar bo'yicha o'sishi kuzatiladi. Bu esa loyiha yuzasidan olingan kreditni qaytarish va korxonada daromadining oshishini anglatadi.

**Loyiha bo'yicha umumiy xulosalar quyidalardan iborat:** import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilishi; zamonaviy texnologiyaning joriy etilishi; loyihaning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari hisobi uning rentabelli va o'zini qoplashligini ko'rsatib beradi; ishlab chiqarish jarayonida 100% mahalliy xom ashyo ishlatiladi; shartnoma bo'yicha sotib olinayotgan uskunat raqobatbardosh va sifatli mahsulot ishlab chiqaradi.

Loyihani amalga oshirish jarayonida mol-mulk riski, ishlab chiqarish riski

<sup>31</sup> «Mir» investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asosnomasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

va moliyaviy risklar yuzaga kelishi mumkin. Mol-mulk riski (er qimirlashi, suv toshqini va h.k.) bo'yicha "Mir" firmasi "O'zбекиsug'urta" kompaniyasi toomnidan sug'urta qilingan. Ishlab chiqarish riski turli omillar ta'sirida ishlab chiqarishning to'xtab qolishi, eng avvalo, asosiy va aylanma fondlarning zarar ko'rishi bilan bog'lanadi. Shartnoma bo'yicha sotib olinayotgan uskuna uni etkazib berish va barcha risklardan sug'urta qilinganligini ham qamrab oladi. Moliyaviy riskda milliy valyutaning konvertatsiyasida qiyinchiliklar yuzaga kelish mumkin, chunki olingan kredit va u bo'yicha foizlar xorijiy valyutada qaytariladi.

"Mir" investitsiya loyihasining samaradorligini aniqlashda PP, NPV, IRR, PI kabi diskont usullaridan foydalandik. Tahlil natijalari quyidagi ko'rsatkichlarni hosil qilish imkonini berdi.

### **1. Investitsiyalarning qoplash muddatini hisoblash usuli (PP).**

$$RR = I_0 / CF_t^{(\Sigma)} = 203372 / 107587 = 1,8 \text{ yil}$$

### **2. Sof joriy qiymat (NPV) usuli.**

$$NPV = 76643/1,12 + 109913/1,24 + 156235/1,36 + 187302/1,48 + 196092/1,6 + 206543/1,72 + 208430/1,84 + 208290/1,96 - 203372 = 860693 - 203372 = 657321 \text{ AQSh doll.}$$

Demak, bu investitsion loyihasini ijobiy deb baholasak bo'ladi. Chunki tahlil natijasi shularni ko'rsatadiki, loyihaning sof joriy qiymati noldan katta, ya'ni NPV = 657321 AQSh dollariga teng.

### **3. Foydaning ichki me'yori usuli (IRR).**

Bizning loyihamiz bo'yicha foydaning ichki me'yori 32 %ga teng, IRR = 32 %ni tashkil etadi.

### **4. Investitsiyalarning rentabelligi usuli (PI).**

$$PI = 860693 - 203372 = 4,1$$

Demak, bizning tahlil qilayotgan loyihamiz bo'yicha investitsiyalar rentabelligi 4,1 koeffitsientga teng. Bu ko'rsatkich korxonaning samaradorligini bildiradi, chunki  $PI > 1$  holda investitsiya loyihasini amalga oshirish mumkin va

bu 1 dan 4 martadan ziyod ekanligini ko'rsatadi.

“Mir” investitsiya loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq risklar ta'siri ham tahlil qilib chiqilgan va unda barcha risklarni baholash va oldini olish choralari ko'rilgan. Shuningdek, sifatli va aniq hisob-kitoblar asosida ishlab chiqilgan investitsiya loyihasini amalga oshirishda risklar tahdidi jiddiy tus olmasligi aniqlangan.

## **II bob bo'yicha xulosa**

1. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish murakkab jarayon hisoblanadi va u aniq natijaviylikni ta'minlashi lozimligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mazkur jarayonni tartibga solish talab etiladi. Buning uchun zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi va uni amalga oshirishning asosiy maqsadi investitsiya loyihalarining milliy valyutadagi kabi xorijiy valyutada ham qoplanishini aniqlash hisoblanadi.

3. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish nazariyasi umumiy holatda ishonchli va ob'ektiv xulosaga olib keluvchi analitik usullar va ko'rsatkichlarning muayyan tizimidan foydalanishni ko'zda tutadi.

4. Tahlil qilingan “Mir” investitsiya loyihasini kompleks ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra uning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi risklar ta'siri o'rganib chiqilgan va unda barcha risklarni baholash va oldini olish choralari ko'rilgan. Shuningdek, sifatli va aniq hisob-kitoblar asosida ishlab chiqilgan investitsiya loyihasini amalga oshirishda risklar tahdidi jiddiy tus olmasligi aniqlangan. “Mir” investitsiya loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq risklar ta'siri ham tahlil qilib chiqilgan va unda barcha risklarni baholash va oldini olish choralari ko'rilgan. Shuningdek, sifatli va aniq hisob-kitoblar

asosida ishlab chiqilgan investitsiya loyihasini amalga oshirishda risklar tahdidi jiddiy tus olmasligi aniqlangan.

### **III BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

#### **3.1. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishdagi muammolar**

Mamlakatimizda investitsion faoliyatni rivojlantirish ustuvor vazifa ekanligi holatida mazkur soha taraqqiyotini ta'minlash jarayonida yuzaga kelayotgan umumiy muammolarni aniqlash va uni bartaraf etish bosh masaladir. Investitsiya faoliyatini taraqqiyotini ta'minlashda salbiy ta'sir etuvchi omillar sifatida, eng avvalo, ayrim tarmoq va hududlarda investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni, aniqsa, to'g'riban-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga bo'lgan e'tibor va amaliy yondashuvlarning talab darajasida emasligi, boshqaruv sohasida o'z mansabini suiste'mol qilish holatlari hali ham mavjudligi, investitsiyalarni moliyalashtirishda hujjatlashtirish jarayonlarining uzoq davom etishi loyihalarning amalga oshirilishi grafigiga salbiy ta'sir etishi, mamlakat milliy valyutasi - so'mning erkin ayirboshlanish jarayonining sustligi, xorijiy investorlarning investitsiya faoliyati natijasida olgan daromadlarining erkin ayirboshlanadigan valyutalarga almashtirishda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun kredit olishdagi qiyinchiliklar, investitsiya loyihalarining kompleks ekspertizasida tadbirkorlarning malakasi va tajribasi etishmasligi, investitsiya loyihalari biznes-rejasidagi ma'lumotlarning etarli asoslanmaganligi, mahsulotlar bo'yicha marketing tadqiqotlarining puxta olib borilmasligi, xorij bozorlari haqidagi ma'lumotlarning etishmasligi, kredit olishdagi garov muammosi kabilarni e'tirof etish mumkin.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ko'p yillik amaliyoti mobaynida loyihalarni hayotga tatbiq etish jarayonida uning texnik-iqtisodiy asosnomasini kompleks ekspertiza qiluvchi banklar, mas'ul muassasalar to'qnash kelayotgan qator muammolar mavjud. Ularni umumiy tarzda quyidagicha guruhlash mumkin:

- investitsiya loyihasini ekspertiza qilish bosqichida yuzaga keluvchi muammolar;

- investitsiya loyihasi bo'yicha moliyalashtirishni ochish bosqichida yuzaga keluvchi muammolar;

- amalda ishlayotgan investitsiya loyihalari bo'yicha muammolar.

Investitsiya loyihasini ekspertiza qilish bosqichida yuzaga keluvchi muammolar quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Investitsiya loyihasining kompleks ekspertizasi bosqichida tadbirkorlar va investorlar haligacha loyiha bo'yicha sifatsiz va ishonchli bo'lmagan axborotlarni taqdim etishmoqda. Ular bilan birga TIANi ishlab chiquvchilar (loyihachi tashkilotlar, moliya institutlari) tomonidan kuzatilishi mumkin bo'lgan risklar to'liq hisobga olinmaslik holatlari kelib chiqib, mahsulot eksporti, ishlatilishi ko'zda tutilgan xom ashyo bo'yicha ma'lumotlar, marketing tadqiqotlarining puxta olib borilmasligi oqibatida olingan xulosalarning etarlicha asoslanmasligi natijasida risklarni pasaytirish choralarini ishlab chiqish, oldini olish imkoniyatlarini qisqartirmoqda.

2. Bu holat investitsiya loyihasini kompleks ekspertizadan o'tkazishni qayta olib borish va natijada uning muddati uzayishiga olib kelmoqda.

3. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish bo'yicha amaliyotda yuqori malakali va etuk mutaxassislarning teishmasligi va ularni tayyorlash, qayta tayyorlashga bo'lgan e'tiborning talab darajasida emasligi muammosi.

4. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish bo'yicha maxsus litsenziyaga ega bo'lgan va tadbirkorlar uchun o'zining sifatli xizmatlarini taklif etuvchi ixtisoslashgan loyiha-injiniring kompaniyalarining

sanoqli ekanligi va yaxshi rivojlanmaganligi hamda ularning malakali kadrlar bilan ta'minlanmaganligi muammosi.

5. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazishda muammolarni hal etish bo'yicha har bir mas'ul tashkilotning alohida yondashuvga egaligi. Bu esa mamlakat bo'yicha ushbu muammoni birgalikda va samarali echim asosida hal etishga intilishni taqazo etmoqda.

Bu muammoni hal etishda aniq tadbirlarning amalga oshirilishi muhim o'rin tutadi. Bunda O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi ko'magi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bo'linmalari, "O'zinvestloyiha" injiniring kompaniyasi, moliyalashtiruvchi tijorat banklari, lizing kompaniyalari, sug'urta kompaniyalari yordami hamda hokimliklar bilan birgalikda amaliyotga quyidagilarni o'zida ifodalovchi hududlar bo'yicha aborot-tahliliy ma'lumotlar bazasi tizimini ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz:

- hudud (tuman, shahar)ning umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, aholining ish bilan bandlik darajasi, intellektual salohiyati, ijtimoiy farovonligi (jon boshiga o'rtada ish haqi, jon boshiga o'rtacha daromad, jon boshiga o'rtacha yalpi ichki mahsulot, jon boshiga o'rtacha investitsiyalar hajmi kabilar asosida);

- mehnat, moddiy, xom ashyo, ishlab chiqarish resurslari mavjudligi;

- asosiy kapitalning yangilanish darajasi va uni yangilash uchun talab etiladigan investitsiyalar hajmi;

- hudud bo'yicha kichik biznes va tadbirkorlik rivojining holati va salohiyati;

- turli mahsulotlar va xizmatlarning ichki bozor marketingi;

- hududning eksport imkoniyatlari.

- hududga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va innovatsion loyihalarni amaliyotga tadbiiq etish darajasi.

Yuqoridagi ma'lumotlarning to'la hajmda bo'lishi salohiyatli investorlar va banklarga loyiha bo'yicha ishonchli qaror qabul qilishni yanada tezlashtirishga olib keladi. Bundan tashqari, tashqi bozorni o'rganish maqsadida amaliy yordam

sifatida maxsus ixtisoslashgan marketing kompaniyalarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu kompaniyalar faqat maslahat-ko'mak vazifasini bajarib, tadbirkorlarga o'z amaliy tavsiyalarini berishi lozim bo'ladi. Investitsiya loyihalarida marketing xarajatlarini hisobga olishning alohida ahamiyatli tomoni shundaki, unga qilingan xarajatlar tarkibi va miqdorini tahlil etish xarajatlarning to'g'ri tashkil etilganligini va o'tkazilgan tadqiqotlarning samaradorligini aniqlashga imkon beradi. Zero, ijobiy natijalarni aniqlash uchun keragicha qilingan har qanday marketing xarajatlari kelgusida qo'shimcha xarajatlarning amalga oshirilishining oldini olish bilan birga qo'shimcha foyda keltirishi bilan ham o'z samarasini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi sektorida loyihalarni amalga oshirishdagi muammolar, ya'ni ekin maydonlari o'zgarishi hisobiga xom ashyo ta'minoti tanqisligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari borasidagi narx siyosati va h.k. Mazkur muammoni hal etishda qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar bo'yicha qabul qilingan qonunchilik tadbirlarini amalga oshirishni tezlashtirish o'z samarasini beradi, deb hisoblaymiz.

Tadbirkorning kredit olishi uchun ko'plab keraksiz hujjatlar va ruxsatnomalar ketidan oylab yurib, vaqt va pul ketkazishlariga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Buning hal etilishi uchun talab qilinuvchi hujjatlar sonini keskin qisqartirish va faqat zarur hujjatlar ro'yxatini tuzish lozim. Shuningdek, kredit olishda foiz stavkalari bo'yicha imtiyozlarni kengaytirish va shu kabi tadbirlarni amalda qo'llash foydadan holi emas.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xorijiy investitsiya ishtirokida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan investitsiya loyihalarining barcha hujjatlarini, shu jumladan texnik-iqtisodiy asosini sifatli va talab darajasida ishlab chiquvchi professional loyiha injiniring kompaniyalarining sanoqli ekanligi va yaxshi rivojlanmaganligi, ularning malakali kadrlar bilan ta'minlanmaganligi, kichik biznes investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtirishda qarz oluvchining loyiha umumiy qiymatida 25 %ni tashkil

etadigan o'z mablag'larining etishmasligi, xorijiy valyutada olgan kreditlarini va uning foizlarini qat'iy valyutada qaytarishlari shartligi, investitsiya loyihalarini tijorat banklarida ekspertizadan o'tkazish jarayoni murakkabligi, kichik korxonalarining xorijiy valyutadagi kreditlarni olishlarida kredit foizlarining yuqoriligidan, korxonalarining biznes-rejalarini ishlab chiqishdagi tajribasizliklari, investitsiya loyihalarini tayyorlash bahosi yukoriligi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi asosiy muammolardandir.

O'zbekistonda investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishdagi muammolarni umumlashtirib, quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir:

- investitsiya loyihasi (mahsulotlar bozori) bo'yicha marketing izlanishlarining chuqur olib borilmasligi va bu loyihaning kelgusidagi pul oqimlari harakatining barqarorligiga hamda kreditni qaytarish manbasining ishonchsizligiga salbiy ta'sir etishi;

- investitsiya loyihasini amalga oshirish natijasida ko'zlangan daromadning (loyiha bo'yicha pul kirimlari) o'z vaqtida kelib tushmaslik riskining mavjudligi va bunday risklarning omillari ishlab chiqarish jarayoni va mahsulotni sotish bilan, xaridolar bilan o'zaro hisob-kitoblar bilan, bozor kon'yunkturasining o'zgarishi yoki mavsumiy tebranishlar bilan bog'liq bo'lishi;

- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish ishlarining mas'uliyat bilan olib borilmasligi va xolisona bo'lmasligi, natijada bu holat loyihaning kelgusi taqdiriga salbiy ta'sir etishi;

- amaliyotda investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda bilim va tajribalarning to'liq egallanmaganligi va o'zlashtirilmaganligi; investitsiya loyihasi samaradorligini baholash ishlari faqat banklar va ayrim sanoqli tashkilotlar tomonidan olib borilishi, boshqa manfaatdor sub'ektlarning esa hali bu yangilikni qabul qila olishga mos bilim va tushunchalari yo'qligi va uquvsizligi;

- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda chet elda ishlab



chiqilgan uslubiyotlardan ko'r-ko'rona foydalanishlik va o'zimizning ichki va milliy xususiyatlarimiz kabilarga ko'proq e'tibor berilmasligi; xom ashyoni etkazib berish va mahsulotlarni sotish bozorlarida marketing tadqiqotlarning to'liq va xaqiqiy olib borilmasligi;

- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda malakali va yosh mutaxassislarning etishmasligi, ularga bo'lgan biroz e'tiborsizlik; ayrim loyihalarda xaqiqiy bo'lmagan, lekin yaxshi natijalar beruvchi raqam va ko'rsatkichlarning ko'rsatilishi; tahlil ishlarida bank mutaxassislarning o'zlari ham ko'p xatoliklarga yo'l qo'yishi, tahlil dasturini yaxshi tushunmasligi va kelib chiqish sabablarini o'zlari ham to'liq bilmasligi va h.k.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishdagi muammolar qatorida investitsion loyihalarning investitsiya oldi fazasida bajariladigan texnik-iqtisodiy asosnomasini (TIA) talab darajasida va loyihaga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqish va tayyorlash bosh masaladir. So'nggi yillarda investitsiya loyihalarini sifatli tayyorlash, ya'ni ularning TIAlarini pishiq-puxta ishlab chiqish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Tijorat banklari ham TIAlarni sifatini ko'tarish borasida maxsus tavsiyalar ishlab chiqmoqda. Shunday bo'lsa ham hozirgi qadar investitsion loyihalarning TIAlarini tayyorlashda ko'pgina muammolar mavjud. Investitsion loyihalarning TIAlarini ishlab chiqishni takomillashtirish masalalari ham, fikrimizcha, TIAlarni ishlab chiqishdagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni samarali hal etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish ma'lum ketma-ketliklarda, ya'ni uch bosqichda amalga oshirilishi va har bir loyiha har bir bosqichda puxta tahlildan o'tishi maqsadga muvofiqdir. Odatda, ob'ektni ishga tushirishning birinchi bosqichining o'zidayoq to'liq loyiha quvvatiga erishishni rejalashtirgan investitsiya loyihalarining aksariyat qismi noreal hisoblanadi. Sababi, turli xil texnologik, ishlab chiqarish va tijorat qiyinchiliklari oqibatida

(sotish hajmining tushib ketishi, xom ashyo va ishchi kuchi ta'minotidagi nomuvofiqliklar va h.k.) loyihalar ishlab chiqilgan rejalariga mos kelmay qolishligi mumkin. Ayniqsa, bunday holat loyiha quvvatining birinchi yilining o'zidayoq to'liq o'zlashtirilishi rejalashtirilgan investitsiya loyihalarida kuzatilishi mumkin. Chunki, aksariyat hollarda, mahsulotni ishlab chiqarish va sotish ishlarida ayrim muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababdan loyiha rejasini ishlab chiqishda uni loyihaning to'liq quvvatiga erishishini investitsiya ob'ektini ishga tushirgan vaqtning uchinchi-to'rtinchi yillariga kelib, yirik va murakkab loyihalarda esa 4-7 yillar ichida o'zlashtirishga moslashtirishga harakat qilinadi. Odatda, bunday rejalashtirish soha, loyiha xususiyatlaridan, ishlab chiqarishning turlaridan, bozor holatidan kelib chiqib amalga oshiriladi va mahsulotning uzluksiz va maksimum imkoniyatlar bilan sotilishiga qaratilgan bo'ladi. Loyihalardagi bu va boshqa jihatlar ular ichidan eng samaralisini tanlashda ziddiyatli holatlarni keltirib chiqarishi sababli to'g'ri qaror qabul qilish muammosi har doim dolzarb masala hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni hal etish investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat ksb etadi, deb hisoblaymiz.

### **3.2. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirish yo'nalishlari**

Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirishda, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator Farmonlari va Qarorlarining, Vazirlar Mahkamasining Qarorlarining hamda Markaziy bankning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarining amal qilishi muhim omil bo'lmoqda. Respublikaning qonun hujjatlarida investitsiya faoliyati sub'ektlari uchun belgilangan imtiyozlar, kafolatlar va rag'batlantirish omillari ular faoliyatini

faollashirishda etakchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, xorijiy banklarning tajribasini hisobga olgan holda, o'z kapitali va jalb etiladigan mablag'lar hajmini muttasil ko'paytirib borish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish shakllari va miqdorlarini kengaytirish tijorat banklarining muhim vazifasi etib belgilanishi, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan o'z mablag'larini ko'paytirish borasida tijorat banklarining faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, loyihalarni moliyalashtirishda qator imtiyozlarning joriy etilganligi kabilar muhim o'rin egallaydi.

Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirishda ayrim zamonaviy iqtisodiy adabiyotlar<sup>1</sup>ni o'rganish va chuqur tahlil qilish ularni takomillashtirishda yaxshi asos bo'la oladi. Bizda iqtisodiy rivojlanishni yo'lga qo'yishda chet el tajribalarini, xususan investitsiya siyosatlarini olib borilishini o'rganish, loyihalarni kompleks ekspertizasi qilishning samarali bo'lgan bosqichlarini imkon qadar o'zimizga tatbiq etishni zarur deb hisoblaymiz. Xususan, ba'zi bir mamlakatlarda loyihalarning samaradorligini baholash uchun bosqichda amalga oshiriladi<sup>1</sup>: loyihaning ijtimoiy ahamiyatini baholash amalga oshiriladi; loyihaning samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil etiladi; loyihadagi ishtirokchilar tarkibi va uning moliyaviy amalga oshirilishi hamda loyiha ishtirokchilari har birining samarasi aniqlanadi. Ulardagi usullarning barcha ijobiy tomonlarini milliy iqtisodiyotimizning o'ziga xos jihatlarini, xususan, "O'zbek modeli"ning tamoyillarini hisobga olgan holda qo'llash, mazkur sohani takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston bugungi kunda bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakat hisoblanadi. Bozor munosabatlariga xos qonunlarning

---

<sup>1</sup> Qarang. Беренц В., Хавранек П. Руководство по оценке эффективности инвестиций, пер.с англ. А.П. Бельх, М.: - Инфра - М, 1995., Богатин Ю.В., Швандар В.А. "Инвестиционный анализ": Учебное пособие для вузов.-М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Учеб. Пособие для вузов /Под общ. ред. И.И.Мазура.- М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2001.

<sup>1</sup> Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Учеб. пособие для вузов /Под общ. ред. И.И.Мазура.- М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2001. - С. 275-301.

yaratilishi, o'zgartirib borilishi va ularning amaliy kuchining ta'minlanishi iqtisodiy erkinlashtirishni hamda o'tish davri islohotlarini jadallashishini ta'minlaydi. Shularning natijasi o'laroq, bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishining yil sayin o'sishi, ularning texnik-iqtisodiy asosini va iqtisodiy samaradorligini baholash tartiblarining to'planib va yaxshilanib borishi investitsiyalardan samarali foydalanishga o'z ta'sirini ko'rsatmokda. Bundan tashqari, bunday tajribalarni o'zlashtirish ishlari respublikada juda sust olib borilmoqda. Ko'pgina banklar bu soha yangiliklari va bilimlarini qabul qilishga hali tayyor ham emaslar. Bu soha bo'yicha banklar ichida TIFMB, "Asakabank", "Ipak-yo'li bank", "Qishloqqurilishbank", "Sanoatqurilishbank"largina shug'ullanmokdalar, xolos.

Bizdagi ish olib borayotgan mutaxassislar investitsiya loyihalaridagi mavjud yoki kutilishi mumkin bo'lgan risk va noaniqliklarni aniqlashga birmuncha qiynalishadi. Chet elda esa bu investitsiya loyihasining ochilmagan (topilmagan) yana bir ko'zi hisoblanadi. Shu bois ham ular risk va noaniqlikni, shuningdek, zararsizlik holatini aniqlashni loyihani baholashdagi muhim vazifalar sarasiga kiritadilar.

Investitsiya loyihasi aniqlanishiga ko'ra analitik ishonch bilan prognozlashi mumkin bo'lmagan kelajakka bog'liqdir. Shu sababli, moliyaviy tahlil va baholash ishlari risk va noaniqlikni hisobga olgan holda olib borilishi lozim. Risk o'tgan davrdagi ma'lumotlar asosida turlicha oqibatlar bilan bog'liq ehtimolliklar baholanishi mumkin bo'lgan xollarda vujudga keladi. Noaniqlik esa yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlar ehtimolligini o'tgan davrlarda tegishli ma'lumotlarning bo'lmasligi sababli sub'ektiv ravishda aniqlashga to'g'ri kelgan hollarda mavjud bo'ladi.

Texnik-iqtisodiy asos uchun ma'lumotlarning to'liq va ishonchli bo'lishi risk va noaniqlikning paydo bo'lishining oldini oladi. Biroq noaniqlikning umumiy sabablaridan bo'lib inflyatsiya, texnologiyaning o'zgarishi, nominal quvvatni to'g'ri baholamaslik, qurilish va ishga tushirish ishlari davrining

davomiyligining to'g'ri baholanmasligi, konvertatsiyaning to'la ma'noda jority qilinmasligi, qonunchilikning tez-tez o'zgarishi kabilar hisoblanadi.

Risklar tahlili loyihaning ishtirokchilari bazaviy va birmuncha xavfli (riskli) variantlarda uning rivojlanish holatini ishlab chiqishni ko'zda tutadi va har bir holat va tegishli sharoitlarda loyihani amalga oshirish mexanizmi qanday ishlashi, bunda daromad va yo'qotishlar, barcha ishtirokchilar uchun samaradorlik ko'rsatkichlari miqdori qanday bo'lishi tadqiq etiladi. Risklar ta'sirini yuqotishda har qanday investitsiyalash jarayonida quyidagi ikkita yo'l tutilishi maqsadga muvofiqdir: turli xil risklardan sug'urtalanish yo'llarini topish; riskni faol nazorat qilish va boshqarish imkoniyatlarini aniqlash.

Jalb etuvchanligi tahlilida o'zgaruvchi parametrlar sifatida qo'llaniladigan va loyihaning moliyaviy natijasiga katta ta'sir ko'rsatadigan omillar guruhidan bo'lib, zahiralarni shakllantirish va boshqarish hisoblanadi. Korxonada ishlab chiqarish zahiralarning to'liq, etarlicha tashkil etilishi, zahiralarning doimiy, o'z vaqtida ta'minlanib turish mexanizmini yaxshi va ishonchli tashkil etilishi ishlab chiqarishdagi uzilish va boshqa muammolar kelib chiqishini oldini olishning eng maqbul yo'llaridan biri sug'urtalashdir. Bundan tashqari, loyihadan tashqari muhitda bo'lgan inflyatsiya, valyuta kursi, soliqqa tortish, bahoning o'zgarishi, ta'sir etuvchi omillar darajasi va o'zgarishlarni oldindan tahlil etish loyihaning turli omillarga ta'sirchanligini oldindan bartaraf etishga olib keladi yoki tegishli choralar qo'llash sharoitini yaratadi.

Loyihaning noaniqlik jihatlarini aniqlashda uning zararsizligini tahlil etish ham muhim ahamiyatga ega. Zararsizlik tahlili yoki zararsizlik nuqtasi tahlili - bu matematik yoki grafik tarzda mahsulotlarni sotishdan olingan daromadning uni ishlab chiqarish uchun ketgan sarflarga (mahsulotning to'liq tannarxiga) teng, aynan mos kelgandagi aniqlangan nuqtasi. Bu tahlilning asosiy maqsadi mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari va uni sotishdan olingan daromadlari teng bo'lgan nuqtani topish hisoblanadi. Agar sotish xajmi ushbu nuqtadan past bo'lsa, u holda firma ishni zararsiz davom ettira oladi. Zararsizlik nuqtasini

aniqlash firmaning loyihaviy quvvatini, uning esa zarar olib kelish-kelmasligini aniqlashga imkon beradi.

Zararsizlik nuqtasidagi sotishdan tushgan tushum o'zini zararsiz sotish qiymati sifatida, mahsulot birligiga teng bo'lgan baho esa bunday holatda o'zini zararsiz sotish bahosi sifatida namoyon etadi. Agar ishlab chiqarish dasturi turli ko'rinishdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'zda tutsa, u holda har biri uchun baholarning alohida variantlari amal qiladi, biroq bahoning yagona "zararsizlik" nuqtasi bulmaydi.

Umuman olganda, investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning Jahon banki tajribasini O'zbekistonda qo'llash investitsiya loyihalarni moliyalashtirish mexanizmi samaradorligini ta'minlashga ko'maklashadi. Chunonchi, Jahon banki loyihalarning iqtisodiy va ijtimoiy, moliyaviy, tashkiliy, institutsional, huquqiy va texnik tahlillariga jiddiy e'tibor beradi. Va bunda, birinchi navbatda, asosiy maqsadni loyihaning texnik jihatdan samarali amalga oshirilishi va moliyaviy barqarorligini aniqlashga qaratadi<sup>1</sup>. Institutsional baholashda loyiha boshqaruvchilari o'zlarining vazifalarini bajara olishi, loyihaning zararsizligini ta'minlay olishi va investitsiyalangan mablag'larni o'z vaqtida qaytara olishi kabilarni aniqlash ishlari olib boriladi. Loyihani huquqiy jihatdan baholash va uning maqsadi loyihaning qonuniyligini tekshirish hisoblanadi.

Shuni ham e'tirof etish kerakki, respublikamizda ham investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi samaradorligini baholashda o'z o'rnida kompyuter dasturlaridan ham foydalanish foyda keltirishdan holi emas. Biroq loyihani baholash ishlari "YuNIDO" uslubiyoti asosida olib borilganligi loyihani to'liq baholashni keltirib chiqara oladi, deb ishonch hosil qilishimiz mumkin. Lekin bu uslubiyot barcha mamlakatlar uchun umumiy tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, unda har bir mamlakatning o'ziga xos alohida xususiyatlari e'tiborga

---

<sup>1</sup> Qarang. Банковское дело и финансирования инвестиций, /Под редакцией Н.Брука. Институт экономического развития Всемирного банка, 1-том 2-часть, 1995. – С. 542.

olinmagan. Banklarda ushbu uslubiyotdan foydalanilayotgan mamlakatning milliy, ijtimoiy-iqtisodiy, etnik, geografik xususiyatlariga, tarixiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholining turmush tarzi, mamlakatning iqtisodiy va intellektual qobiliyati va salohiyatiga, ijtimoiy ahvoriga, rivojlanish strategiyasi va investitsiya siyosatiga, tashqi aloqalari va milliy bozorining o'ziga xos tomonlariga qat'iy e'tibor berish juda muhim masala hisoblanadi.

Loyihalarning kompleks ekspertizasi sifatini oshirish maqsadida loyiha bo'yicha pul oqimini rejalashtirishda unga ta'sir etuvchi omillarni oldindan hisobga olish lozim. Barcha tijorat banklarida "Loyihalarni moliyalashtirish", "Loyihalar ekspertizasi", "Loyihalar monitoringi" kabi bo'limlarni ochish foydali bo'lishi mumkin; beriladigan kreditlar uchun talab qilinadigan garov miqdorini kamaytirish zarur yoki bo'lmasa kafolatlar tizimini yo'lga qo'yish lozim (masalan, davlat kafolatlari); banklarda loyihalarni moliyalashtirish, ekspertiza qilish ishlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarni qayta o'qitish bilan malakasini oshirish zarur; o'quv yurtlarida bo'lajak mutaxassislarni loyihalarni baholashga mo'ljallangan turli uslubiy dasturlar bilan tanishish va ishlash tizimini yaratish lozim va h.k.

Investitsiya loyihalarini samaradorligini baholash ma'lum ketma-ketliklarda, ya'ni uch bosqichda amalga oshirilishi va har bir loyiha har bir bosqichda puxta tahlildan o'tishi maqsadga muvofiqdir. Odatda, ob'ektni ishga tushirishning birinchi bosqichining o'zidayoq to'liq loyiha quvvatiga erishishni rejalashtirgan investitsiya loyihalarining aksariyat qismi noreal hisoblanadi. Sababi, turli xil texnologik, ishlab chiqarish va tijorat qiyinchiliklari oqibatida (sotish hajmining tushib ketishi, xom ashyo va ishchi kuchi ta'minotidagi nomuvofiqliklar va h.k.) loyihalar ishlab chiqilgan rejalariga mos kelmay qolishligi mumkin. Ayniqsa, bunday holat loyiha quvvatining birinchi yilining o'zidayoq to'liq o'zlashtirilishi rejalashtirilgan investitsiya loyihalarida kuzatilishi mumkin. Chunki, aksariyat hollarda, mahsulotni ishlab chiqarish va sotish ishlarida ayrim muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababdan loyiha

rejasini ishlab chiqishda uni loyihaning to'liq quvvatiga erishishini investitsiya ob'ektini ishga tushirgan vaqtning uchinchi-to'rtinchi yillariga kelib, yirik va murakkab loyihalarda esa 4-7 yillar ichida o'zlashtirishga moslashtirishga harakat qilinadi.

Odatda, bunday rejalashtirish soha, loyiha xususiyatlaridan, ishlab chiqarishning turlaridan, bozor holatidan kelib chiqib amalga oshiriladi va mahsulotning uzluksiz va maksimum imkoniyatlar bilan sotilishiga qaratilgan bo'ladi. Loyihalardagi bu va boshqa jihatlar ular ichidan eng samaralisini tanlashda ziddiyatli holatlarni keltirib chiqarishi sababli to'g'ri qaror qabul qilish muammosi har doim dolzarb masala hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar loyihalarini mazmun-mohiyati kapitalni muayyan jarayonlarga va muddatlarga band etilishi va buning oqibatida erishishladigan natijalar bilan tavsiflanadi. Investitsiyalarni safarbar etish aniq maqsadlarga qaratiladi va aniq natijalarni ko'zlaydi. Agarda ko'zlangan natijalarga erishilmasa, investitsiyalar o'rinsiz, keraksiz, qimmatsiz bo'lib, chiqadi.

Iqtisodiyot sohiblarini ishlab chiqarishga investitsiyalashlardan maqsad hoxlagan miqdordagi natijani qo'lga kiritish emas, balki qarzga olingan, jalb etilgan resurslar qiymatidan kelib chiqib, ularni qoplash va qo'shimcha ravishda natijaga erishishdir. Investitsiya natijalari, birinchidan, jamiyat nuqtai-nazardan qabul qilinishi mumkin bo'lgan investorning minimal talablarini qondirilishini, ikkinchidan, kelajakdagi inflyatsiya evaziga ko'riladigan yo'qotishlarni qoplanishini va uchinchidan esa investorning olishi mumkin bo'lgan daromadlarni yo'qotilishiga sabab bo'lgan risklarni, ya'ni talofatlarni taqdirlanishini talab etadi.

Iqtisodiyot sohiblarining o'z mablag'lari va jalb etilgan investitsiyalari nisbati moliyaviy barqarorlik koeffitsentini shakllantiradi. Jalb etilgan va qarzga olingan resurslar qanchalik oz bo'lsa moliyaviy barkarorlik koeffitsenti yuqori bo'ladi. Turli hil manbalar turli qimmatlikka egadir. Investitsiyalashdagi asosiy



vazifa safarbar etiladigan investitsiyalar manbalari nisbatini optimalashtirishdadir, ya'ni arzon manbalarni ko'paytirish va investitsiyalash xarajatlarini qisqartirish.

Investitsiyalarni amalga oshirilishi korxonalarni maqsadli investitsiya strategiyalarini shakllantirilishini va ushbu strategiyalarni tatbiq etish usullarini ishlab chiqishini taqazo etadi. Investitsiyalashni ustuvor yo'nalishlarini texnik va iqtisodiy jihatdan asoslash hamda zarur bo'lgan moliyaviy resurslar xajmini aniqlash va ularni jalb qilinishi mumkin bo'lgan manbalarini baholash investitsion qarorlar qabul qilishdagi asosiy mezonlar hisoblanadi. Maksimal sof daromad olish maqsadida investitsiyalash yo'nalishlarini aniqlash eng murakkab iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalash bo'yicha qaror qabul qilish tanlov asosida tashkil qilinadi, chunki uning qator muqobil yo'nalishlari mavjud bo'ladi. Raqobat muhiti ta'sirchanligida har bir iqtisodiyot sohibi bankrotlikdan saqlanishga, o'z mavqeini mustahkamlashga, aniq strategiyaga ega bo'lishga, rivojlanishni ustuvor yo'nalishlarini aniqlashga, amalga oshiriladigan yangiliklarni tizimlashtirishga xarakat qilgan xolda maksimal natijalarni qo'lga kiritish maqsadida faoliyat yuritadi, zarur bo'lgan investitsiyalar xajmini aniqlaydi va moliyalashtirish manbalari imkoniyatlarini baholaydi. Bular o'zaro bog'liqlikda olib borilishi shart. Investitsiya loyihalari samadorligini baholashda o'zaro bog'liq bo'lgan dinamik ko'rsatkichlar tizimini qo'llash to'g'ri investitsiya qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi:

- sof daromad;
- sof diskontlangan daromad yoki integral samara - sof keltirilgan yoki joriy qiymat daromadlik indeksi;
- qoplanish muddati;
- ichki daromad me'yori (ichki foyda me'yori) ;
- moliyaviy barqarorlik.

Muqobil loyihalarni baholashda va tanlovni tashkil qilishda eng yuqori

darajada sof diskontlangan daromadni ta'minlaydigan loyiha tanlab olinadi.

Murakkab vazifalardan biri ehtimoli bor risklarni baholashda to'liq va ishonchli axborot bazasidan kelib chiqib, maqbul usullarni qo'llash, ularni loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash hamda ularni pasaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdir. Milliy iqtisodiyotda eng maqbul usul loyihaga qaratilgan pul oqimlari va buning natijasida olinadigan sof pul oqimlari ketma-ketligi va ular miqdorlarini real diskont stavkalari asosida aniq va ravshan hisoblab chiqishdan iboratdir.

Fikrimizcha, tijorat banklari investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish sifatini sezilarli darajada oshirishlari zarur, bu esa ularga moliyalashtirilayotgan loyihalar amalga oshirilishini har bir bosqichda kuzatib borgan holda, investitsiya jarayonlarida faol ishtirok etish hamda mavjud risklarni samarali boshqarish imkonini beradi. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda qarz oluvchining faoliyati samaradorligini, tovar va xizmat ko'rsatish bozoridagi, tarmoqdagi holatini (pozitsiyasini) hisobga oluvchi uslubiyotdan foydalanish lozim. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti davlatlarining tajribasidan kelib chiqqan holda, mijozlarning kreditga layoqatliligini aniqlashda kreditlashning uchta "S" usuliga amal qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bular: "S" - Charakter – mijozning xarakteri, ya'ni kreditlashdan oldin uning haqqoniyligi, boshqa banklar bilan munosabati, korxonada obro'si hamda yashash tarzlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi; "S" - Capability - imkoniyat, boshqaruv xodimlarining qobiliyati, tajribasi hamda ushbu sohadagi malakasi, kreditni qaytarish manbalari, uzoq muddatli aktivlarini sotish hamda foydalilik ko'rsatkichlari; "S" - Capital - kapital, korxonada rahbarlarining shaxsiy mol-mulkulari, aksiyadorlik kapitali, korxonaning olgan foydasi, pul oqimlari, ta'minot (asosiy vositalari) miqdorlarini aniqlashdan iborat. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizasi mustaqil tarmoq-ekspertlar ishtirokida o'tkazilishi "tanish" yoki "qarindoshlik" tamoyili asosida sub'ektiv yondashuvlardan holi etadi hamda investitsiya loyihasi TIAsining baholash

sifatini bir muncha oshiradi.

Investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asosnomasi sifatli va puxta ishlab chiqish uchun, avvalo, investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini o'qitish va malakasini oshirish ishlarini tashkil etish va faollashtirish zarur. Loyihalarning texnik-iqtisodiy asosnomasi ishlab chiqarish omillariga, shart-sharoitlariga, bozor sharoitlariga bog'langan bo'lishi, tahlil natijalari esa xarajatlar, daromadlar va sof foyda qismini yaqqol ko'rsatib berishi lozim. Loyihalarning texnik-iqtisodiy asosnomasini ekspertizadan o'tkazish uslubiyoti buxgalteriya hisobi standartlariga, soliqqa tortish va loyihaviy tahlil qoidalariga muvofiq bo'lishi lozim. Hozirgi vaqtda texnik-iqtisodiy asosnomani ishlab chiquvchilar va turli banklar o'rtasida texnik-iqtisodiy asosnomaning hisob-kitoblari natijalari bo'yicha qarama-qarshiliklar mavjud, shuning uchun loyihaviy tahlilning milliy standartlarini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, banklar tomonidan har yili muntazam ravishda "Eng yaxshi investitsiya loyihasi" ko'rik-tanlovini o'tkazib borish, tanlovda investitsiya loyihasi tashabbuskorlarining bir yillik moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari, eksportbop va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish, yangi ish joylarini yaratish, jamoatchilik ishida va xayriya faoliyatida ishtirok etish kabilar ham e'tiborga olinishi maqsadga muvofiqdir. Tanlov g'oliblarini har bir viloyat yoki tuman miqyosida aniqlash va ularga imtiyozli asoslarda uzoq muddatga kreditlar berish amaliyotini joriy qilish orqali ular faoliyatini yanada rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir.

Olbi borilgan tadqiqotlar natijasida investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asosnomasi sifatli va puxta ishlab chiqish uchun, avvalo, investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini o'qitish va malakasini oshirish ishlarini tashkil etish va faollashtirish zarur.

2. Investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asosnomasini ekspertizadan

o'tkazish uslubiyoti buxgalteriya hisobi standartlariga, soliqqa tortish va loyihaviy tahlil qoidalariga muvofiq bo'lishi lozim.

3. Hozirgi vaqtda texnik-iqtisodiy asosnomani ishlab chiquvchilar va turli banklar o'rtasida texnik-iqtisodiy asosnomaning hisob-kitoblari natijalari bo'yicha qarama-qarshiliklar mavjud, shuning uchun loyihaviy tahlilning milliy standartlarini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

4. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ixtisoslashgan loyiha-injiniring kompaniyalarini tashkil etish va ularni malakali kadrlar bilan ta'minlash lozim. Bunda ushbu kompaniyalarga o'z faoliyatlarini rivojlantirish uchun alohida imtiyozlar berish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ularning mijozlar sari intilishini kuchaytirish maqsadida o'zlarini tuli reklama vositalari orqali tanishtirish va shu orqali o'z xizmalarini taklif etish bo'yicha qulayliklarni ta'minlash zarur.

5. Mamlakat bo'yicha investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish va undagi muammolarni hal etish bo'yicha har bir mas'ul tashkilotning alohida yondashuvining oldini olish maqsadida uning birgalikda echimini topishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadla muvofiqdir.

6. O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi ko'magi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bo'linmalari, "O'zinvestloyiha" injiniring kompaniyasi, moliyalashtiruvchi tijorat banklari, lizing kompaniyalari, sug'urta kompaniyalari yordami hamda hokimliklar bilan birgalikda amaliyotga quyidagilarni o'zida ifodalovchi hududlar bo'yicha aborot-tahliliy ma'lumotlar bazasi tizimini ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz:

- hudud (tuman, shahar)ning umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, aholining ish bilan bandlik darajasi, intellektual salohiyati, ijtimoiy farovonligi (jon boshiga o'rtada ish haqi, jon boshiga o'rtacha daromad, jon boshiga o'rtacha yalpi ichki mahsulot, jon boshiga o'rtacha investitsiyalar hajmi kabilar asosida);

- mehnat, moddiy, xom ashyo, ishlab chiqarish resurslari mavjudligi;

- asosiy kapitalning yangilanish darajasi va uni yangilash uchun talab

etiladigan investitsiyalar hajmi;

- hudud bo'yicha kichik biznes va tadbirkorlik rivojining holati va salohiyati;

- turli mahsulotlar va xizmatlarning ichki bozor marketingi;

- hududning eksport imkoniyatlari.

- hududga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va innovatsion loyihalarni amaliyotga tadbqiq etish darajasi.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalar investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi, yueb hisoblaymiz.

### **III bob bo'yicha xulosa**

1. Investitsiya loyihalariga xos bo'lgan muammolarni umumiy tarzda quyidagicha guruhlash mumkin:

- investitsiya loyihasini ekspertiza qilish bosqichida yuzaga keluvchi muammolar;

- investitsiya loyihasi bo'yicha moliyalashtirishni ochish bosqichida yuzaga keluvchi muammolar;

- amalda ishlayotgan investitsiya loyihalari bo'yicha muammolar.

2. Investitsiya loyihasini ekspertiza qilish bosqichida yuzaga keluvchi muammolar asosiy muammo hisoblanib, ularning hal etilishi keyingi guruh muammolari echimini ham topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Bugungi kunda respublikamizda investitsiya loyihasini ekspertiza qilish jarayonida bir qator muammolar mavjudligi loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va samaradorligini ta'minlash borasida muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligini ko'rsatadi.

## XULOSA

Dissertatsiya mavzusi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi quyidagi **xulosalar** chiqarish imkonini berdi:

1. Ijtimoiy samaraga erishish maqsadidagi bir-biri bilan o'zaro bog'liq, bir-biri bilan aloqadorlikdagi murakkab tadbirlar yig'indisini o'zida mujassam etgan huquqiy-boshqaruv, texnik va moliyaviy hisoblar hujjatlari to'plamiga investitsiya loyihasi deyiladi.

2. Investitsion loyihani amalga oshirish maqsadlari turli xil bo'lishi mumkin. Lekin ularni to'rtta guruhga ajratish mumkin: bozorda mahsulotni saqlab qolish; ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash; yangi mahsulot chiqarish; ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni echish. Bunda loyihani amalga oshirishning bosh maqsadi foyda (daromad) olishga yoki hech bo'lmaganda kapital qiymatini saqlab qolishga qaratiladi.

3. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning ahamiyati quyidagilar ko'rinadi: import o'rmini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirish va pirovardida, aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi; xorijiy investitsiyalarning samarali o'zlashtirilishi natijasida ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etilib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantiradi; tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi; resurslarni qayta ishlovchi korxonalarini barpo etishga ko'maklashadi; korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.

4. Investitsiya loyihalari kompleks ekspertizasi – bu investitsiya loyahasini tizimli va yaxlit tarzda o'rganish, uning barcha jihatlarini tahlil qilish va

baholash hamda ular nitajasi bo'yicha tegishli xulosalarni shakllantirish.

5. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish murakkab jarayon hisoblanadi va u aniq natijaviylikni ta'minlashi lozimligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mazkur jarayonni tartibga solish talab etiladi. Buning uchun zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

6. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi va uni amalga oshirishning asosiy maqsadi investitsiya loyihalarining milliy valyutadagi kabi xorijiy valyutada ham qoplanishini aniqlash hisoblanadi.

7. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish nazariyasi umumiy holatda ishonchli va ob'ektiv xulosaga olib keluvchi analitik usullar va ko'rsatkichlarning muayyan tizimidan foydalanishni ko'zda tutadi.

8. "Mir" investitsion loyihasining afzallik jihatlari import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilishi; zamonaviy texnologiyaning joriy etilishi; loyihaning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari hisobi uning rentabelli va o'zini qoplashligini ko'rsatib beradi; ishlab chiqarish jarayonida 100% mahalliy xom ashyo ishlatiladi; shartnoma bo'yicha sotib olinayotgan uskuna raqobatbardosh va sifatli mahsulot ishlab chiqarishi bilan izohlanadi;

9. Investitsiya loyihasini ekspertiza qilish bosqichida yuzaga keluvchi muammolar asosiy muammo hisoblanib, ularning hal etilishi keyingi guruh muammolari echimini ham topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

10. Bugungi kunda respublikamizda investitsiya loyihasini ekspertiza qilish jarayonida bir qator muammolar mavjudligi loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va samaradorligini ta'minlash borasida muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligini ko'rsatadi.

Ishda investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi **taklif-tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asosnomasi sifatli va puxta

ishlab chiqish uchun, avvalo, investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini o'qitish va malakasini oshirish ishlarini tashkil etish va faollashtirish zarur.

2. Investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asosnomasini ekspertizadan o'tkazish uslubiyoti buxgalteriya hisobi standartlariga, soliqqa tortish va loyihaviy tahlil qoidalariga muvofiq bo'lishi lozim.

3. Hozirgi vaqtda texnik-iqtisodiy asosnomani ishlab chiquvchilar va turli banklar o'rtasida texnik-iqtisodiy asosnomaning hisob-kitoblari natijalari bo'yicha qarama-qarshiliklar mavjud, shuning uchun loyihaviy tahlilning milliy standartlarini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

4. Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ixtisoslashgan loyiha-injiniring kompaniyalarini tashkil etish va ularni malakali kadrlar bilan ta'minlash lozim. Bunda ushbu kompaniyalarga o'z faoliyatlarini rivojlantirish uchun alohida imtiyozlar berish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ularning mijozlar sari intilishini kuchaytirish maqsadida o'zlarini tuli reklama vositalari orqali tanishtirish va shu orqali o'z xizmalarini taklif etish bo'yicha qulayliklarni ta'minlash zarur.

5. Mamlakat bo'yicha investitsiya loyihalarini kompleks ekspertizadan o'tkazish va undagi muammolarni hal etish bo'yicha har bir mas'ul tashkilotning alohida yondashuvining oldini olish maqsadida uning birgalikda echimini topishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadla muvofiqdir.

6. O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi ko'magi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bo'linmalari, "O'zinvestloyiha" injiniring kompaniyasi, moliyalashtiruvchi tijorat banklari, lizing kompaniyalari, sug'urta kompaniyalari yordami hamda hokimliklar bilan birgalikda amaliyotga quyidagilarni o'zida ifodalovchi hududlar bo'yicha aborot-tahliliy ma'lumotlar bazasi tizimini ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz:

- hudud (tuman, shahar)ning umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, aholining ish bilan bandlik darajasi, intellektual salohiyati, ijtimoiy farovonligi (jon boshiga o'rtada ish haqi, jon boshiga o'rtacha daromad, jon boshiga o'rtacha yalpi ichki



mahsulot, jon boshiga o'rtacha investitsiyalar hajmi kabilar asosida);

- mehnat, moddiy, xom ashyo, ishlab chiqarish resurslari mavjudligi;

- asosiy kapitalning yangilanish darajasi va uni yangilash uchun talab etiladigan investitsiyalar hajmi;

- hudud bo'yicha kichik biznes va tadbirkorlik rivojining holati va salohiyati;

- turli mahsulotlar va xizmatlarning ichki bozor marketingi;

- hududning eksport imkoniyatlari.

- hududga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va innovatsion loyihalarni amaliyotga tadbiq etish darajasi.

Yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalar amaliyotda investitsiya loyihalarin kompleks ekspertiza qilish jarayonidagi muammolarni hal etish va sifatini oshirishga samarali xizmat qilishiga aminmiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. Oliy Majlisning 29.08.1996 yildagi 257-I-sonli Qaroriga muvofiq 1 mart 1997 yildan e'tiboran amalga kiritilgan.

2. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil 30 aprel.

3. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil 30 aprel.

4. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil 24 dekabr.

5. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2000 yil 25 may.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 il 20 iyundagi "Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar tomonidan tayyor iste'mol mollari ishlab chiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish

borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 yanvardagi PQ-554-sonli "Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 14 martdagi "Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3860-sonli Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4053-sonli Farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PF-4058-sonli Farmoni.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1166-sonli Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi 1438-sonli "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada islox qilish va barkarorligini oshirish xamda yukori xalkaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyundagi "Mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

26-sonli Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7 iyundagi "Investitsiya loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash tartibi haqida"gi Qarori.

18. Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2007 yil 7 iyunda "Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 110-sonli Qarori asosida tasdiqlangan.

### **III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari**

19. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. –T.: O'zbekiston, 2003.

20. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. - T.: "O'zbekiston", 2005.

21. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 56 b.

22. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: O'zbekiston, 2012. – 36 b.

23. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: O'zbekiston, 2013. – 64 b.

### **IV. Asosiy adabiyotlar**

24. Abiyarova A. Investitsiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini

baholash. // “Bozor, pul va kredit” jurnali, 2005. – №1.

25. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taq. et. diss. – T.: BMA, 2000.

26. Ангелиди М.С., Каримов Н.Г. Анализ инвестиционных проектов, Учебное пособие, Т. : Ташкентский Финансовый институт, 2000.

20. Беренц В., Хавранекс П. Руководство по оценке эффективности инвестиций, пер.с англ. А.П. Белых, М.: - Инфра - М, 1995.

21. Богатин Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ. Учебное пособие для вузов. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. –162 с.

22. Босовский Л.Е. Экономическая оценка инвестиций. –М.:Учебное пособие.”Инфра-М”, 2007. -242 с.

23. Бочарев В.В. Комплексный финансовый анализ. – Спб.: Питер, 2005. – 432 с.

24. Бузова И.А. и др. Коммерческая оценка инвестиций. –М.: Учебник. 2003. -427 с.

25. Вахрин П.И., Нешиной А.С. Инвестиции. Учебник.-М.: 2005. -380 с.

26. Vaxabov A.V. va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. –T.: O’quv qo’llanma. “Moliya”, 2010. -328 b.

27. Домадаран А. Инвестиционная оценка. Инструменты и техника оценки любых активов.-М.: Учебник. 2004. 1342 с., «Альпина Паблишер», 2011. -1324 с.

28. Ендовицкий Д.А. Комплекс анализ инвестиций - М.: Финансы и статистика, 2002. – 145 с.

29. Jo’raev A.S., Xo’jamqulov D.Yu., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili. – T.: Sharq, 2003. – 256 b.

30. Зайнутдинов Ш. Риск менеджмента. Учебное пособие./ Ш. Зайнутдинов, А. Шермухамедов. - Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. - 256 с.

31. Инвестиции: Учебное пособие /Г.П. Подшиваленко, Н.И. Лахметкина, М.В. Макарова и др. – М.: КНОРУС, 2008. 178 с.
32. Инвестиции: учеб. пос. /И.Ю.Ткаченко, Н.И. Малых. – М.: Академия, 2009.
33. Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов. - М.: Финансы и статистика, 2002. - 144 с.
34. Колтынюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной сферы: Учебник. – СПб.: «Изд-во Михайлова В.А.», 2000.
35. Колтынюк Б.А. Инвестиции. Учебник. – СПб.: Михайлова В.А., 2003. – 848 с.
36. Кузнецов Б. Т. Инвестиции: учеб. Пособие для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки «Экономика». – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. 414 с.
37. Липсиц И. В., Коссов В. В. Экономический анализ реальных инвестиций. М.: Экономист, 2003. 240 с.
38. Литл Дж., Роудс Л. Как пройти на Уолл-стрет. С-Петербург. ПИТЕР, 1998. -368 с.
39. Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Учеб. пособие для вузов /Под общ. ред. И.И.Мазура.- М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2001.– 301 с.
40. Mirzaev F.I. Moliyaviy risklarning turlari, tasnifi, boshqarish va baholash usullari. – T.: Moliya, 2006.
41. Михайлова Э.А., Орлова Л.Н. Экономическая оценка инвестиций. –М.: Учебное пособие, РГАТА, 2008. -176 с.
42. Москвин В.А. Управление рисками при реализации инвестиционных проектов. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 352 с.
43. Нешиной А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд. – М.: Дашков и К<sub>0</sub>, 2006.

44. Nosirov E., Mamatov B., Shoislomova N., Sharifxo'jaeva K. Investitsiya risklarini boshqarish. – T.: Fan va texnologiyalar, 2011. – 148 b.
45. Ример М.И., Касатов А.Д., Матиенко Н.Н. Экономическая оценка инвестиций. – М.: Питер, 2006. 480 с.
46. Риск-менеджмент инвестиционного проекта. Под ред. Грачевой М. В. – М.: Юнити, 2009. – 544 с.
47. Роберт Дж.Х. Инвестирование. –М.:АГАТА, 2005. – 288 с.
48. Староверова Г. С. Экономическая оценка инвестиций: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. 312 с.
49. Тимченко Т.Н. Экономическая оценка инвестиций: Учебное пособие. М.: РИОР, 2005. – 63 с.
50. Хелдервич К. Основы финансового анализа. Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2003.
51. Хохлов Н.В. Управление риском. Учеб. Пособие. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001. 239 с.
52. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: Moliya, 2003. – 332 b.

## **V. Qo'shimcha adabiyotlar**

53. «Investitsiya loyihalari kompleks ekspertizasi» fanidan ma'ruzalar matni. – T.: TMI, 2012.
54. Ленсколд Дж. Рентабельность инвестиций в маркетинг. Методы повышения прибыльности маркетинговых кампаний. / Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2005. – 272 с.
55. Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирование инвестиций. – М.: Финансы и статистика, 2001.
56. Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari samaradorligi. // “Bozor, pul va kredit” jurnali, 2004. – №7-8.

57. Чеботарев Н.Ф. Оценка стоимости предприятия (бизнеса): Учебник. – М.: Дашков и К, 2009. – 256 с.

58. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Sharq, 2006.

## **VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar**

59. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2000-2012 yillar bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar ma'lumotlari.

60. "Mir" investitsiya loyihasi ma'lumotlari.

## **VII. Internet saytlari**

– <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi).

– <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

– <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi).

– <http://www.cbu.uz> (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki).

– <http://www.tfi.uz> (Toshkent Moliya instituti).